


MUHABBAT QURBONOVA, LAYLO RAUPOVA.

O'ZBEK STRUKTURAL TILSHUNOSLIGI ASOSLARI



O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALİШЕR NAVOIY NOMIDAGI
O'ZBEK TİLİ VA ADABIYOTI UNIVERSİTETI

MUHABBAT QURBONOVA, LAYLO RAUPOVA

O'ZBEK STRUKTURAL TILSHUNOSLIGI ASOSLARI

5A220102 – Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligining magistratura
bo'limi talabalari uchun o'quv qo'llanma

Qurbonova Muhabbat, Laylo Rauova
Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" Ltd. JSC

099-123-4567
+998 99 123 45 67
E-mail: innovatsiya.ziyo@mail.ru

+998 99 123 45 67
E-mail: innovatsiya.ziyo@mail.ru

Toshkent
"INNOVATSIYA-ZIYO"
2021

UO'K: 8
KBK: 80
Q-85

Qurbanova Muhabbat
Raupova Laylo. O'zbek struktural tilshunosligi asoslari / o'quv qo'llanma /
Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2021, 76 b.

Taqrizchilar:
Saodat Muxamedova
filologiya fanlari doktori, professor

Muyassar Saparniyozova
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti Кенгаша
карори билан нашрга тавсия этилган

ISBN 978-9943-8666-1-4

© Qurbanova M., Raupova L., 2021.
© "INNOVATSIYA-ZIYO", 2021.

1-mavzu. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FORMAL- FUNKSIONAL TAHLILNING SHAKLLANISHI

Yevropada o'tgan asrning 20-30-yillarda keng rivojlangan sistem-struktur tilshunoslik sobiq Sovet Ittifoqida 60-yillarning bosqligiga qadar "burjua fani" sifatida rasman qoralangan edi. Shu tufayli ayni shu davrgacha sistemaviy lisoniy tadqiqotlar olib borish uchun hech qanday imkoniyat mavjud emas edi. 1957-yilda bu tazyiq bartaraf etilgach, sobiq sovet tilshunosligida sistem-struktur tilshunoslikning Ferdinand de Sossyur, N.S.Trubetskoy, R.O.Yakobson, L.Yelmslev va boshqalarning ta'lilotlari bilan bog'liq bo'lgan g'oya va tahlil usullari ommalasha bordi. Turkiyshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida sistem-struktur tadqiqotlarni S.N.Ivanov boshlab berdi. S.N.Ivanov nomzodlik dissertatsiyasi¹ grammatik forma (shakl)ning umumiy lisoniy ma'nosi va uning nutqiy voqelanishi, nutqiy xususiyliklarni lisoniy umumiyliklarga birlashtirish, lisoniy ma'no va sintaktik funksiya munosabatlari kabi qator masalalarini o'rtaqa qo'ydi. Uning 60-yillarda e'lon qilingan monografiyasi (doktorlik dissertatsiyasi)² til qurilishining substansial-dialektik tadqiq usullari shakllantirildi. S.Ivanov lisoniy birliklar mohiyatini ochishda dialektik falsafa, tadqiq manbayi haqida ilmiy-nazariy hukm chiqarish jarayonida dialektik gnoseologiya, xususan, dialektik logik kategoriyalardan onglilik va izchillik bilan foydalanan masalalarini o'rtaqa qo'ydi. Bu ta'lilot struktur tilshunoslikning Praga lingvistik maktabi (funksional lingvistika) talqinidagi nutq faoliyatida lison va nutq bosqichlarini izchillik bilan farqlash omilining rivoji sifatida shakllandi. Bu ta'lilotning eng muhim va ahamiyatli tomoni shundaki, olim turkiy tilshunoslikda grammatik shaklga substansial (zotiy) yondashish omilini amalga tatbiq etdi. Bunday yondashuvda lisoniy birlik substansiya (zot) sifatida nutqda voqelanuvchi barcha ma'no va vazifalarini o'zida mujassamlashtirgan, deya e'tirof etiladi. Shuning uchun lisoniy birlik nutqda voqelananganda yangi-yangi ma'no va vazifalar kashf etmaydi, balki o'zida nutqiy voqelanishdan oldin lisoniy bosqichda

¹ Иванов С. Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. – Л: ЛГУ, 1959.

² Иванов С. Н. Родственное древо порок Абул Гани хана. Грамматический очерк. – Ташкент: Фан, 1969.

mujassamlashgan imkoniyatlardan ma'lum bir qisminigina voqelantiradi. Lisoniy birlikda paradigmatic munosabatlar asosida ochiladigan umumiyyat ma'no shu birlik nutqiy voqelanishlarida ro'yobga chiqadigan xususiyat ma'nolardan katta bo'lib, hech qachon bu nutqiy ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi. S.Ivanov bu umumiyyat ma'noni qarama-qarshi, bir-biriga zid tomonlarning birikuvi sifatida talqin etdi.

S.Ivanov turkiy tilshunoslikda ilgari surgan zotiylik (substansiallik) omili falsafa (dialektika)ning narsa obyektivligi va o'z munosabatlarini o'zida mujassamlashtirishiga, ya'ni tilshunoslikka, til hodisalariga bevosita tatbiq etilishi edi. Dialektikaning umumiyyilik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik, sabab va oqibat kategoriyalarining til tizimi birliklariga bevosita amaliy tatbig'iidan iborat bo'lgan bu yondashuvning metodologik asoslari H.G.O.Ne'matov ko'rsatganidek¹, islomiy tasavvufning zot (substansiya) va tajalli (refleksiya) haqidagi ta'limoti, ya'ni zot (substansiya)ga majmuyi asmo va sifot (ismlar va belgililar, munosabatlar yig'indisi) sifatida qarash, voqelikda zotning faqat tajallilanishi haqidagi ta'limoti bilan bog'liq edi. Shuning uchun zot (lisoniy birlikning umumiyyat ma'nosini) o'z nutqiy voqelanishlari (tajallilar, refleksiyalari)ning oddiy yig'indisi ham, barcha nutqiy voqeliklar uchun umumiyyat bo'linuvchi ham emas yoki ularning barchasining maxraji ham bo'la olmaydi – zot voqelanishlar (tajallilar)dan, ularning yig'indisidan ham kattadir.

Ma'lumki, falsafiy adabiyotlarda substansiya (zot) bevosita kuzatishda berilmagan, ichki birligi tomonidan qaraladigan obyektiv borliq bo'lib, o'zining har xil o'zgarishlariga nisbatan befarq, ammo shu o'zgarishlar hisobiga yashaydigan barcha shakllari va harakatlari aspektidagi materiya; bu harakatlarda paydo bo'luvchi farq va qarama-qarshiliklar, deb ta'riflanadi.² Shuni ta'kidlash joizki, zot va tajalli (substansiya va refleksiya) tushunchalari nisbiydir. Chunki borliqda mavjud narsa va hodisalar qismi va butun, xususiylik va umumiyylik munosabatida bo'ladi. Narsa, tadqiq manbayi (lisoniy birlik)ning mohiyati uning belgi-xususiyatlari uchun substansiya (zot) hisoblansa,

o'zi mansub bo'lgan kattaroq birliklar uchun har xil zot tajallilari, sifatlari jamidan iborat narsa sifatida yashaydi. Lisoniy birlikning umumiyyat ma'nosini shuning uchun ham umumiyyiliklararo paradigmatic munosabatlar asosida belgilanadi va shu birlikning nutqiy voqelanishi uchun imkoniyat mavqeyiga ega bo'ladi. Lisoniy birlikning umumiyyat ma'nosini uning sifatlari va munosabatlari jamidan axtarish kerak. Lisoniy birlik (zot)ning qaysi qirrasi – tomonining nutqda konkret voqelanishi lisoniy birliklarning sintagmatik munosabatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun nutqiy ma'no va vazifalar tasodifiy, sof kontekstual bo'lmay, ma'lum imkoniyatlari (lisoniy umumiyyat ma'nolar) va qat'iy qonuniyatlar bilan belgilanadi.

S.N.Ivanovning zotiy (substansial) talqini morfologik kategoriylar tahlili asosida shakkantirilgan edi. Olimning izlanishlarini H.Ne'matov o'zining ko'p sonli izdosh va shogirdlari (R.Rasulov, R.Sayfullayeva, O.Bozorov, M.Qurbanova, Sh.Shahobiddinova, B.Mengliyev, L.Raupova, M.Abuzaeva, S.Nazarova, Sh.Akramov, R.Bobokalonov, S.Muhammadjonova, N.Musurmonova, B.Bahriiddinova, T.Asadov, G.Ne'matova, Sh.Orifjonova, M.Saidova, X.Saidova, M.Fayzullayev, L.Salkalamanidze, H.Shokirova, S.G'iyosov, N.Shirinova va b.) bilan izchil davom ettirdi, substansial-dialektik tahlil usullarini chuqurlashtirdi, nafaqat morfologiya, balki fonetika, leksika, sintaksis va stilistika yutuqlarini ham shu asosda tadqiq etish usullarini ishlab chiqdi. Natijada, o'zbek tili leksikasi, morfologiyasi va sintaksisi tadqiqi yangi bir bosqichga ko'tarildi. Bu yo'nalish vakillari tomonidan o'rtaga tashlangan yangicha qarashlar asosida o'zbek tilshunosligida original ilmiy tahlil usuli shakllandi. Keyingi yillarda bu tahlil usuli o'zbek tilshunosligida **formal-funksional** yoki **substansial** tilshunoslik nomi bilan ommalashdi. Shuni ta'kidlash joizki, har qanday tahlil usuli yoki ta'limot kabi ushbu tahlil usulining ham o'ziga xos maqsad-vazifalari, tayanch tushuncha va atamalari, shuningdek, o'ziga xos talqin va tasniflari mavjud.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. O'zbek tilshunosligida sistem-struktur tadqiqotlar dastlab kim tomonidan amalga oshirilgan?

¹ Ne'matov H. Tajalli tasavvuf bilish nazarasi va tilshuneslikda sintaksisi o'rjanish masalalari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1993. – № 2. – B. 27-30.

² Filosofiya lug'ati – Toshkent: "O'zbekiston", 1976. – 457-458-b.

2. Formal-funksional tahlil usuli va dunyo tilshunosligida strukturalizm maktablari o'rtasidagi munosabati sharhlang.
3. Falsafiy adabiyotlarda substansiya (zot)ga qanday ta'rif beriladi?
4. Lisoniy birlikning umumiyligi ma'nosi qaysi munosabat asosida belgilanadi?
5. Nutqiy ma'noning tasodifiy emasligi ma'lum qonuniyatlar bilan belgilanishi sharhlang.

2-mavzu. FORMAL-FUNKSIONAL TAHLILNING SHAKLLANISHIDAGI OMILLAR

Ma'lumki, har qanday nazariya muayyan zaminda, muayyan shart-sharoitda vujudga keladi, har qaysi davr o'z fani oldiga muayyan talablarni qo'yadi. XX asrning 2-yarmiga kelib o'zbek tilshunosligi oldida til tadqiqida yangi tahlil usuliga ehtiyoj paydo bo'ldi va natijada, oldingi mavzuda ta'kidlanganidek, formal-funksional yo'naliш shakllandi. Yangi tahlilning fanimizga kirib kelishi va tez rivojlanishi uchun o'zbek tilshunosligida qulay sharoit mayjud edi. Bu zamin, asosan, quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. 70-yillarga kelib, Ayub G'ulomov va uning izdoshlari tomonidan Shaxmatov-Vinogradov ta'limoti nazariy asoslari orqali o'zbek tili fonetikasi, leksikasi, morfologiysi, sintaksisi va stilistikasining tavsiflanishi ma'lum darajada yakunlangan edi. Lekin mazkur tahlil usullarida yig'ilgan va atroflicha tavsiflangan son-sanoqsiz, bir-biridan uzilgan hodisalar umumlashtirishga muhtoj bo'lib, fan ularni umumlashtiruvchi yangi g'oyalarga, yangi tadqiqot usullariga chanqoq edi.

2. Shu davrga kelib, A. Abduazizov, I. Abdurahmonov, Sh. Rahmatullayev, R. Yunusov, I. Qo'chqortoyev kabi tilshunoslarning o'zbek tili bo'yicha tadqiqotlari sistemaviy tahlil usullari, uning asosiy omili bo'lgan lison va nutq hodisalarini farqlashning samaradorligiga ishonch hosil qilgan edi.

3. 70-yillarga kelib, asosan, sistemaviy tahlil usullari bilan ish olib boruvchi o'zbek romanistikasi va germanistikasi shakllandi va bu o'zbek tilshunosligida yangi tahlil usullarining tez tarqalishiga ijobjiy ta'sir ko'rsata boshladi.

4. O'zbek tilshunosligida yangi yo'naliшning tez ommalashishiga bu davrda rus tilshunosligida sistemaviy tahlil usullarining keng yoyilganligi ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.
5. Bu ilmiy zaruriyatlardan tashqari, o'zbek tilshunosligida tahlil usullarining yangilanishi va formal-funksional yo'naliшning rivojlanishiga turki bo'lgan ijtimoiy omil – 1985-yilda boshlangan, O'zbekiston Respublikasining istiqloли bilan yakunlangan qayta qurish, mavjud iqtisidiy, siyosiy, ma'naviy tizimni yangilash kabi buyuk ijtimoiy harakat bo'ldi. O'zbek xalqi hayotining barcha tarmoqlari qatorida o'zbek filologiyasi (ilmi) ham yangi tahlil usullari yordamida ish ko'ra boshladi. Bu jarayonning tez taraqqiy etishiga zotiy (substansial) tahlil usullarining o'zbek xalqi tarixi va ma'naviyatida katta ahamiyat va ildizlarga ega bo'lgan islomi tasavvuf metodologiyasi bilan uyg'unligi ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

Mana shu ilmiy va ijtimoiy zaruratlar taqozosi bilan o'zbek tilshunosligida formal-funksional tahlil usuli shakllandi va fanda yangi bir bosqichni boshlab berdi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Formal-funksional yo'naliшning shakllanishi qanday omillar bilan belgilanadi?
2. O'zbek tilshunosligidagi dastlabgi sistemaviy tadqiqotlar haqidagi gapiring.
3. Sistemaviy tahlilga asoslanuvchi o'zbek romanistikasi va germanistikasida yaratilgan qanday tadqiqotlarni bilasiz?
4. Formal-funksional yo'naliшning shakllanishidagi ijtimoiy omilni sharhlang.

3-mavzu. FORMAL-FUNKSIONAL TAHLIL TAMOYILLARI

Ma'lumki, har qanday yangi ilmiy tadqiq usuli – ilmiy paradigma o'z tahlil usuli va shu bilan bog'liq tamoyillariga ega. Formal-funksional tahlil usuli ham bundan mustasno emas. Bu yo'naliшda qilingan tadqiqotlarni sinchiklab o'rganish asosida ularga xos asosiy tamoyillar sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- 1) lisoniy birlikning zotiy (substansial) tabiat;

2) har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigmaga mansubligi;
3) lisoniy tizimning barcha bosqichlarida oraliq uchinchining
mutlaqligi;

4) lisoniy tizirmning ierarxik (pog'onaviy) qurilishi; bu ierarxiyada
har bir bo'g'inning nisbiy mustaqilligi va har bir bo'g'in uzvlarinining
gipo-giperonimik munosabatlari bilan ochiq mikrosistema sifatida
o'zaro bog'lanishi;

5) har bir lisoniy birlikning o'z xususiy sinonimik va graduonimik
qatoriga ega bo'la olishi va bu qatorlarning umumiy lisoniy sistema va
mikrosistemalarga bevosita aloqador emasligi.

Biz yuqorida sanab o'tgan tamoyillar til hodisalarini formal-funksional taddiq asosida o'rganishda *uzviylik*, *izchillik* va *yaxlitlik* bilan qo'llaniladi. Boshqacha aytganda, mana shu 5 ta asosiy tamoyilning yaxlitligi, butunligi formal-funksional tahlil usulining asosini, negizini tashkil etadi.

Quyida bu tamoyillardan har birining lisoniy sathlarda vogelanishini ko'rib o'tamiz.

Lisoniy birlikning zotiy (substansial) tabiat. Lisoniy birlikning zotiy (substansial) tabiat uning "majmuysi asmo va sifot" ekanligi, ya'ni bevosita kuzatishda berilmagan bo'lib, faqt moddiy vogelanishlar uchun omil bo'la oladigan imkoniyatlar majmuasidan iborat ekanligida namoyon bo'ladi. Shu bois, fonema fonologik qiymatga ega bo'lgan farqlovchi belgilari (differensial belgilari) majmuasi sifatida, grammatik va leksik morfemaning ichki (mazmun, vazifa) tomoni relevant semalar majmuasi sifatida, lisoniy konstruksiyalar (qoliplar, modellar) esa ularni bevosita tashkil etuvchilarining sifatlari majmuasi sifatida baholanadi.

Chunonchi, [a] fonemasining mohiyati ma'no farqlashga xizmat qila oladigan "kenglik" va "lablanmaganlik" differensial belgilarining majmuasi sifatida belgilanarkan, ayni zamonda shu fonema o'zbek nutqi fonetik tizimiga xos bo'lgan juda ko'p fonetik xususiyatlar (tilning gorizontal harakatiga ko'ra: qattqlik-yumshoqlik, uzun-qisqalik, kuchlilik-kuchsizlik va b.)ga nisbatan neytral sanaladi. Shuning uchun bu fonema nutqda o'zining neytral belgilari asosida o'nlab variantlarni berishi mumkin.¹

¹ Нигматов Х.Т. Фундаментальная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент: Фан, 1989.

Grammatik morfemalarda ham har bir morfema uchun xos bo'lgan relevant semalar ajratiladi. Chunonchi, [-lar] ko'plik morfemasiga "miqdoriy noaniq ko'plik" va "sifatiy bo'linuvchanlik" barqaror semalar majmuasi sifatida qaraladi. Bu semalar ko'plik son shaklining umumiyl (lisoniy) ma'nosini tashkil etadi va shulardan tashqari, barcha ma'no nozikliklariga nisbatan neytraldir va kontekst asosida ularni vogelanitira oladi.¹

Leksemaning lisoniy ma'nosini ham relevant va neytral semalar majmuasi sifatida belgilanadi. Chunonchi, M.Narziyeva [ota] leksemasing semantik strukturasini "qon-qarindoshlik", "yosh jihatdan katta", "birinchi avlod", "erkak" semalarining majmuasi sifatida bersa², S.G'iyosov [chiroyli] leksemasi semantik strukturasini "belgi", "ijobiy subyektiv baho", "tashqi" semalarining majmuasi sifatida beradi.³ O'zining semantik strukturasida ifodalangan semalardan boshqa barcha semalarga nisbatan leksema neytral sanaladi va nutqiy sharoit asosida ularni vogelanitira oladi. Leksik va grammatik morfema transpozitsiyasi (ko'chma ma'noda qo'llanilishi) uning tarkibida ifodalangan biror semaning nutqiy xususiyat (sintagmatik munosabatlari) asosida chetlashtirilishi va boshqa bir (neytral yoki ifodalangan) semaning bo'rttirilishi asosida sodir bo'ladi. Shu asosda leksemalarning izohli lug'atda yangicha sharhlash yo'llari tavsiya etiladi.⁴

Yasama so'zlar va sintaktik hosilalar (so'z birikmalari, gaplar) nutqiy birliklar sifatida baholanib, lisoniy birliklar sifatida faqt ularning qoliplari (modellari) e'tirof etiladi. Lisoniy qolip (model) matematik tenglama tabiatiga ega bo'lib, u ikki tarkibiy qismidan iborat: lisoniy qolipning shakli va mazmuni. Lisoniy qolipning shakliy tomonini bu qolipning tuzuvchilari tashkil etadi. Lisoniy qolip hosilasining ma'noviy (vazifaviy) qiymati esa bu qolipning mazmun tomonini tashkil etadi. Masalan, [narsa, ish-harakat, holat nomi + shaxs oti yasovchi [-chi] morfemasi = shu narsa, ish-harakat, holatga aloqador

¹ Иванов С.Н. Родословное древотекст АбулГази хана. Грамматический очерк. – Ташкент: Фан, 1962. Нигматов Х.Т. Фундаментальная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент: Фан, 1989.

² Нарзинова М. Семантическая структура имён существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1992.

³ Гюков С. Семантическая структура имён существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1983.

⁴ Нарзинова М. Семантическая структура имён существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1992; Сидикова Х. А. Узбек топонимий номенклатура и география визуализация кульминации. Филол. филологии номенклатур дисс. автореф. 1995.

harakatni bajaruvchi shaxs¹ qolipida tenglik alomatidan chap tomondagi qism qolipning shakliy tomoni, bu belgidan o'ng tomondagi qism uning mazmun tomoni sifatida qaraladi. So'z birikmalarini qoliplarining mazmun tomoni sintaktik tabiatga ega bo'ladi. Chunonchi, [istalgan turdag'i leksemaning qaratqich kelishigi shakli [W^{q,k}] + boshqa bir ismnning egalik qo'shimchasi bilan kelgan shakli [W^{e,k}] = aniqlovchi-aniqlamish munosabatlari bilan bog'langan so'zlar birikmasidan iborat atov birligi] ($W^{q,k} + W^{e,k} = W^{s,b}$).

Nutq birligi sifatida so'z birikmasining konkret ma'nosi nutq sharoiti, bu so'z birikmasida kelgan so'zlar orasidagi ma'noviy va mantiqiy munosabatlari bilan belgilanadi.²

Sodda gapning minimal qolipi [WP_m] – (atov birligi [W] + kesimlik kategoriysi [P_m] = hukm), qo'shma gapning umumiy minimal qolipi [$WP_m V WP_m$ = hukm] sifatida ajratiladi va shu asosda o'zbek tilidagi sodda va qo'shma gaplarning yangi tasnifi beriladi.³ Sintaktik qoliplar shakliy tomonlarining tarkibiy qismlari ham alohida zot (substansiya)dir. Chunki ta'kidlaganimizdek, substansiya va refleksiya (tajallii va zot) tushunchalari ham borliqdagi barcha narsa-hodisalar singari nisbiydir. Shuning uchun ularning har biri o'zida ma'lum bir belgilarni mujassamlashtiradi. Bu esa sintaktik sathda zotiy yondashuv bilan tilshunoslikda keng ommalashgan valentlik nazariyasining birlashishiga olib keladi. [$W^{q,k} + W^{e,k} = W^{s,b}$] yoki [WP_m = hukm] qoliplarida atov birligi [W] – leksema va grammatic formalar [q.k., e.k. yoki P_m] alohida zotlar sifatida nutqda kengayish, boshqa birliklar bilan munosabatlarga kirishish qobiliyatiga egadir. Shuning uchun nutqiy gapda bunday yondashishda so'z kengaytiruvchilari va gap kengaytiruvchilari farqlanadi.⁴ Jumladan, *Men hozircha bu matabda yangi o'qituvchiman gapida men, hozircha matabda shakllari gap kengaytiruvchilari, ya'ni* [$WP_m = \dots$] qolipining [P_m] qismi valentligi aktantlari, shuningdek, *bu, yangi so'z shakllari esa so'z kengaytiruvchilari, ya'ni mabitab va o'qituvchi so'zlarining gap*

¹ Nazarova S. Birikmalarda so'zlarining erkin bog'lanish omillari: Filol.fanlari nomzodi...diss.avtorcf. – Toshkent, 1997.
² Nazarova S. Birikmalarda so'zlarining erkin bog'lanish omillari: Filol.fanlari nomzodi...diss.avtorcf. – Toshkent, 1997.
³ Sayfullayeva R., Abuzalova M. Gapning crig kichik qurilish qoliplari haqidagi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1991. – B. 42-47.
⁴ Abuzalova M. sodda gap modeli va uning paradigmasi haqidagi // Respublika yosh filolog olimplarining an'anaviy ilmiy konf. mater. – Toshkent, 1990 – 67-68-b. Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning en kichik qurilish qolipi va uning nutqida voqeleanishi: Filol.fanlari nomzodi...diss. – Toshkent, 1994; Sayfullayeva R.R. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'shma gaplarning shakl-vazifaviy (formal-funksional) talqini: Filol.fanlari d.-ri...diss. avtorcf. – Toshkent, 1993.

⁵ Akramov Sh. O'zbek tilining gap qurilishida to'ldiruvchi va hol. (WP_m) valentligi aspektida: Filol.fanlari nomzodi...diss. – Toshkent, 1997.

qurilishi bilan bevosita aloqador bo'limgan xususiy aniqlovchilarini sifatida qaraladi. Shu yo'l bilan lisoniy birliklarning zotiy tabiatini fonemadan boshlab eng yuqori sintaktik birliklarga olib beriladi. Chunonchi, R. Sayfullayeva [$WP_m V WP_m$ = hukm] – qo'shma gapning umumiy qolipi [$WP_m, WP_m = \dots$], [$WP_m WP_m = \dots$], [$WP_m WP_m = \dots$] kabi uch oraliq turlarni ajratadi. Mana shu turlardan biri [$WP_m, WP_m = \dots$] alohida bir zot sifatida o'zining tarkibiy qismlari alohida, mustaqil qo'llanila olish qobiliyatiga ega bo'lgan sodda gaplar orasida oddiy birin-ketinlik, momentallik, uzluksizlik, sabab-natiya, payt va boshqa munosabatlarni o'zida mujassamlashtiradi va nutq sharoitiga mos ravishda turli-tuman bog'lovchi vositalar bu munosabatlardan birini voqeleanitiradi. Masalan, [$WP_m, WP_m =$ murakkab hukm] qolipining hosilasi bo'lgan quyidagi qo'shma gaplarda bu munosabatlarni turli bog'lovchi vositalar yordamida muayyanlashtiriladi.¹

1-jadval

Nº	Qo'shma gaplar	Bog'lovchi vosita	Voeqelantirilgan ma'no
1.	Havo ochildi, biz yo'lga chiqdik	ohang	Birin-ketinlik
2.	Havo ochildi va biz yo'lga chiqdik	va	Birin-ketinlik
3.	Havo ochildi-yu, biz yo'lga chiqdik	-yu	Momentallik
4.	Havo ochildi, shuning uchun biz yo'lga chiqdik	shuning uchun	Sabab-natiya
5.	Havo ochilgach, biz yo'lga chiqdik	-gach	Payt
6.	Havo ochildi, shundan so'ng biz yo'lga chiqdik	shundan so'ng	Ketma-ketlik
7.	Havo ochildi, natijada biz yo'lga chiqdik	natijada	Sabab-natiya

Zotiylik omiliga ko'ra, bu rang-barang munosabatlari [$WP_m V WP_m$] qolipining o'zida mujassamlangan va nutqda muayyan nutqiy sharoit (jumladan, bog'lovchilar) ulardan birini voqeleanitiradi.

Jadval R. Sayfullayevaning taddiqqotidan olindi. Qarang: Sayfullayeva R.R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gapning formal-funksional talqini. – Toshkent: "Fan", 1994.

Lisoniy birlikka substansial yondashuvda lisoniy birlik o'zida mayjud barcha belgi va xususiyatlarni, jihat va munosabatlarni tashuvchi, bularga bevosita ega butunlik sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, har bir lisoniy birlik o'z belgi-xususiyatlarining birligidan iborat muayyan tomon, tarkibiy qismlarga, imkoniyatlarga ega bo'lgan o'ziga xos tizimdir.

Narsaning (lisoniy birlikning) boshqa narsalar bilan munosabatlarda namoyon bo'ladigan barcha belgi-xususiyatlar tasodifiy bo'lmay, shu narsaning ichki tabiatiga xos bo'lib, faqat boshqa narsalar bilan munosabatlarda namoyon bo'ladi. Lisoniy birliklarga substansial yondashuv umumiy ma'no, umumiy shakl kabi tushunchalarni oydinlashtirishga xizmat qiladi.

B.Mengliyev ta'kidlaganidek, zotiy yondashuv tahlil chog'ida tadqiqotchini ba'zi bir xatolarga yo'l qo'yishdan:

- zotning ayrim qirrasini tadqiq etayotganda, o'rganayotgan qirra, tomon bilan zotni tenglashtirish va qorishtirishdan;
- har bir zotning mohiyati uning har xil birliklar bilan munosabatlarda turlicha namoyon bo'lar ekan, bu jarayonda undagi boshqa zotlarning ta'sirini sezmaslikdan;
- moddiy (zohiran) o'xshash, zotan va mohiyatan o'zga narsalarni aralashtirishdan saqlaydi.¹

Tilshunosligimizda 70-80-yillarda kirib kelgan valentlik nazariyasi ham lisoniy birliklarga substansial yondashuv bilan uzviy bog'liq. Valentlik substansial hodisa sifatida lisoniy birlikning doimiy ichki xususiyati bo'lib, bu xususiyat nutq faoliyatida yuzaga kelmaydi. U nutqqacha tilda mayjud bo'ladi, yuzaga chiqishga tayyor imkoniyat tarzida saqlanadi. Nutqda esa ushbu imkoniyat namoyon bo'ladi. Ko'rindiki, formal-funksional tahlil umumiylilik, mohiyat, imkoniyat, sabab tabiatiga ega bo'lgan lisoniy birliklarni va yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat tabiatiga ega bo'lgan nutqiy birliklarni onglilik va izchillik bilan farqlash omiliga tayanadi. Har bir lisoniy hodisa va uning nutqiy voqelanishiga mana shunday metodologik yondashish formal-funksional tahlilning zotiylik (substansiallik) tamoyilini tashkil etadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Formal-funksional tahlil tamoyillari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Lisoniy birlikning zotiy tabiatini to'g'risida tilshunos olimlarning fikrlari qanday?
3. Sodda gapning minimal qolipi va qo'shma gap qoliplari o'zbek tilida mavjud kommunikativ birliklarning hammasiga muvofiq keladi, deb o'ylaysizmi?
4. Formal va semantik valentlik tushunchasini misollar asosida sharhlay olasizmi?

4-mavzu. LISONIY BIRLIKNING KO'P PARADIGMAGA MANSUBLIGI TAMOYILI

Har bir zot (ya'ni lisoniy birlik) qarama-qarshiliklar majmuasi bo'lib, bir necha o'ziga o'xshash lisoniy birliklarga oppozitiv bo'lganligi sababli lisoniy birliklarning mohiyatini bitta paradigmadan aniqlash mumkin emas. Har bir lisoniy birlik xilma-xil boshqa lisoniy birliklarga bilan munosabatlari asosida bir necha paradigmadan o'rinn oladi. Lisoniy birlikning bir necha paradigmada ishtirok eta olishi dialektika va tasavvufda narsaning (istalgan tadqiq manbayining) serqirraligi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, dialektikada narsaning, ya'ni lisoniy birlikning serqirraligi deganda, shu narsaning o'ziga o'xshash hamda noo'xshash, aloqador va aloqasiz cheksiz narsalar bilan rang-barang munosabatlarga kirisha olishi va shular asosida ziddiyatlari xususiyatlarga, tomonlarga ega ekanligi tushuniladi. Har bir lisoniy birlik serqirra bo'lib, u har bir qirrasi bilan alohida-alohida paradigmalardan joy olishi mumkin. Chunonchi, ravish ham, sifat ham belgini atab, ot va fe'llarni aniqlab kelaveradi. Demak, atash va sintaktik vazifa nuqtayi nazardan ravishlar va sifatlar ma'lum bir semantik va funksional paradigmada bir xil o'rinn oladi va bir uzvning turli variantlari mavqeyida bo'ladi. Lekin morfologik belgilariغا ko'ra, sifatlar morfologik o'zgarish (so'z shakllariga ega bo'lish) qobiliyatiga ega, ravishlar esa o'zgarmas so'zlardir. Sifat va ravishlar ikki paradigmada ikki xususiyatini namoyon qiladi. Shunday xususiyatni

¹ Mengliyev B. Morfoloqik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari. Filofanlari nomzodi ...diss. avtoref. - Toshkent, 1996.

har bir so'z turkumida ko'rib o'tishimiz mumkin.¹ Shuning uchun har bir lisoniy birlik turli-tuman munosabatlarning (paradigmalarining) kesishish nuqtasida turadi va bir necha paradigmalarda barqaror yoki neytral belgi bilan ishtirok etadi. Masalan, [a] fonemasi [i] – [e] – [a] darajalanish qatoridan ham, [a] – [o] – [u] darajalanish qatoridan ham o'rinn oladi va bu paradigmalarda uning ikki barqaror fonologik belgisi [kenglik, lablanmaganlik] ochiladi. Lekin [a] fonemasi bundan tashqari, qattiqlik – yumshoqlik, kuchlilik – kuchsizlik, uzunlik – qisqalik kabi bir qator fonetik va fonologik qatordan neytral a'zo sifatida o'rinn oladi.

Grammatik morfemalar ham kamida ikki paradigmada o'z mohiyatini ochadi. Jumladan, kelishik morfemalari, fe'l turlari (harakat nomi, ravishdosh, sifatdoshlar), egalik qo'shimchalari, ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarning mohiyati semantik va sintaktik belgilari asosidagi paradigmalarda ochilishi mumkin. So'zning lug'aviy ma'nolari bilan uzviy bog'liq bo'lgan forma yasovchilarining (lug'aviy shakllarning) ham ma'noviy mohiyati eng kamida ikki paradigmada ochilishi mumkin. Chunonchi, birlik va ko'plik son shakllari "miqdoriy noaniqlik" va "sifatiy bo'linuvchanlik" belgilari asosida ikki oppozitiv qatorni tashkil etadi. Mayl va zamon shakllari "modallik" va "nutq momentiga munosabat" belgilari asosida ikki oppozitiv qatorni tashkil etadi.

Shuningdek, leksema ham denotativ va konnotativ ma'nolari asosida kamida ikki paradigmadan o'rinn oladi.

Sintaktik hosilalarning qoliplari ham kamida ikki paradigmaga mansub bo'ladi. Masalan, [$I^{q,k}$ $I^{e,k}$] (olmaning yeyilishi) so'z birikmasi qolipi bir tomondan (tushum kelishigi shaklidagi ism + o'timli fe'l = ...), ya'ni [$W^{l,k}$] (olmani yemoq) qolipi bilan oppozitiv bo'lsa, ikkinchi tomondan [$I^{sh,k}=F$] (olmadan yemoq) qolipi bilan oppozitivdir.*

Shuningdek, sodda gapning minimal qolipi [WP_m] ham lisoniy birlik sifatida bir necha paradigmalarda o'z xususiyatlarini namoyon qiladi. Bu yerda shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'zbek tilshunosligidagi bu yangi yo'nalishda sintaktik qoliplar paradigmatisasi endi o'rganilmogda.

Lisoniy birliklarning bir necha paradigmalardan o'rinn olishi, bu paradigmalardan ayrimlarida uning barqaror belgisini ochishi, ayrimlarida esa neytral belgilari bilan ishtirok etishi lisoniy birlik umumiyl (lisoniy) mohiyatida barqarorlik va o'zgaruvchanlik xususiyatlarini birlashtiradi. Shuning bilan lisoniy birlikning o'zgaruvchanlik (rivojlanish) momenti sistemaning o'zidan kelib chiqadi va sistemaviy tahlilda barqarorlik (sistemaning asosiy omili) va o'zgaruvchanlik (tilda rivojlanishning asosiy omili) lisoniy tizimning ichki tabiatini mavqeini kashf etadi; lisoniy tizim o'zgaruvchanlik omilisiz bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun lisoniy birliklarning bir necha paradigmalarga kirishi ularning mohiyatan serqirraligi va ziddiyatiligini ochish bilan birga, ularning nutqda qo'llash darajasini, miqyosini ham belgilab beradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Lisoniy birlikning bir necha paradigmada ishtirok eta olishiga sabab nima?
2. [a] fonemasi mansub bo'lgan paradigmalarni sharhlang.
3. Grammatik morfemalarning ko'p paradigmaga mansubligini sharhlang.
4. Lisoniy birlikning ko'p paradigmalilik tamoyilini sintaktik kategoriyalar misolida sharhlang.
5. Lisoniy birlik mohiyatidagi barqarorlik va o'zgaruvchanlik xususiyatlari haqida gapiring.

5-mavzu. LISONIY TIZIMDA ORALIQ UCHINCHINING MUTLAQLIGI TAMOYILI

Lisoniy tizimda oraliq uchinching mutlaqligi lisoniy birliklarning bir necha paradigmalarga kira olishi bilan uzviy bog'liqdir. Oraliq uchinchi deganda, dialektikada ikki bir-birini inkor etadigan xususiyatning uchinchi bir narsada birlikda bo'lishi tushuniladi. Formal logika uchinchisi mustasno qonuni bilan ish tutadi.¹

¹ Назарова Х.Т. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент: "Фан", 1989.
Узбек so'z birikmalari qoliplari haqidagi qarang: Nazarova S. Birikmalarda so'zlarning erkin bog'lanish omillari/Filol. fanlari nomzodi...diss. avtoref. – Toshkent, 1997.

¹ Sayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. – Toshkent: O'qitavchi, 1995.

Bunda va kabi ikki hodisaga nisbatan A (yoki V haqidagi 2 hukm)dan: 1) A=B; 2) A ≠ V faqat bittasi to‘g‘ri bo‘ladi. Dialektik logikada va zidlanish mohiyatiga ega. Ya’ni V ham V=A, ham V ≠ A.¹ Demak, V teng A ga hamda V teng emas A ga. Boshqacha aytganda, V hodisa bir payting o‘zida ham A hodisaga, ham V hodisaga o‘xshaydi, u A va B hodisalarining hech biriga aynan teng emas; V hodisa alohida, ya’ni uchinchi bir hodisadir.

Lisoniy birlik ham bir necha paradigmalarga kirar ekan, har bir paradigmaga faqat bir qirrasi bilangina kiradi; boshqa qirrasi bilan boshqa paradigmada turadi, ya’ni ham u, ham bu paradigmada turadi va mutlaq bir paradigmaga nisbat berilishi mumkin emas.

Privativ (noto‘liq, xususiy) oppozitsiyada turgan ikki lisoniy birlikdan oppozitsiyaning belgisiz a‘zosi mohiyatan oraliq uchinchidir. Chunonchi, jarangsizlar – jaranglilar – sonorlar qatorida oppozitsiyaning ikki ziddiyatlari chekkasi jarangsizlar va sonorlar bo‘lsa, jaranglilar bu ziddiyatda oraliq uchinchidir. Yoki unlilar – sonorlar – undoshlar oppozitsiyasida sonorlar oraliq uchinchi mavqeyida bo‘ladi. Morfoloqik shakllardan birlik son shakli aniq miqdorni ham, noaniq miqdorni ham ifodalay oladi. Demak, aniq miqdor va noaniq miqdorni ifodalash oppozitsiyasida birlik son – oraliq uchinchi mavqeyida turadi. Yoki o‘tgan zamona shakllari sodir bo‘lgan (bo‘lman) harakat-holatni, kelasi zamona shakllari sodir bo‘lishi kerak bo‘lgan harakat-holatni atab kelsa, hozirgi zamona shakllari sodir bo‘lgan, davom etayotgan va davom etadigan harakatlarni ifodalab, bu ziddiyatda oraliq uchinchi mavqeyida turadi. Shuningdek, yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlar va grammatik qo‘sishchalar orasida oraliq uchinchi mavqeyida bo‘lsa, yarim yordamchi so‘zlar (ot ko‘makchilar va h.k.) mustaqil va yordamchi so‘zlar orasida oraliq uchinchidir.

Sintaktik sathda ham oraliq uchinchilar mutlaqdir. Chunonchi, uyushgan gaplar sodda va qo‘sima gaplar ziddiyatida oraliq uchinchi, frazemalar so‘z birkmasi va leksemalar ziddiyatida oraliq uchinchi holatidadir. Ega va hollar ot-kesimli gaplarda gap kengaytiruvchilar mavqeyida bo‘lsa, fe'l-kesimli gaplarda ular so‘z va gap kengaytiruvchilar oralig‘ida turadi.

¹ Киров Б.М. Закон исключенного третьего и его антипод // Дialectika i logika. Законы мышления. – М., 1962.

Bu sohadagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, har bir lisoniy birlik bir necha paradigmada ishtirok eta olganligi sababli, oraliq uchinchi holatida bo‘ladi. Bu omilni rivojlantirish tilshunoslikning ushbu yo‘nalishida tasavvur qilib bo‘limas xulosaga olib keldi; Aristoteldan Sossyurgacha, Sossyurdan shu kungacha lisoniy tizim binar, dixotomik zidlanishlar silsiladan iborat deb tasavvur qilinari va tahlil etilar edi. Bu binar, dixotomik zidlanishga oraliq uchinchi kiritilgach, lisoniy tizim dixotomik emas, balki politomik zidlanishlar silsilasi sifatida, bu tizim uzvlarinining qarama-qarshi qo‘yilishi tasdiq-inkor (bor-yo‘q) kabi sifati zidlanish tabiatiga emas, balki miqdoriy o‘zgarishlar va ularning sifat o‘zgarishlariga o‘tish zanjiri tabiatiga ega ekanligi haqidagi xulosaga olib keladi.¹ Bu esa lisoniy birliklar sinonimiysi va antonimiysi muammosiga tamoman yangicha yondashuv imkonini beradi. Jumladan, O.Bozorov ta‘kidlaganidek, gulobi – pushti – qizg‘ish – qizil – qirmizi – ol lug‘aviy graduonimiya qatorida qizil dominantasidan o‘ng va chap tomonda turgan so‘zlar o‘zaro sinonimlar sifatida baholana olsa, chap tomon so‘zları bilan o‘ng tomondagilar (gulobi – ol; pushti – qirmizi) o‘zaro antonimlardir. O.Bozorov xuddi shunday graduonimik (ya’ni sinonimo-antonimik) qatorlarning fonetik, fonologik, leksik, morfoloqik, sintaktik va stilistik sathlarga ham xosligini ko‘rsatdi va lisoniy tizimda graduonimik qurilish umurniy qonuniyatardan biri ekanligini ko‘rsatib berdi.²

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. “Oraliq uchinchi” deganda nimani tushunasiz?
2. Formal logikaning “uchinchisi mustasno” qonunini sharhlang.
3. Oppozitsiyaning qaysi turida “Oraliq uchinchi” mavjud?
4. Dixotomik va politomik zidlanishlarni tushuntiring.
5. Fonetik-fonologik sathdagi “Oraliq uchinchi”larni sharhlang.
6. Leksik sathdagi “Oraliq uchinchi”larga misollar keltiring.
7. Morfoloqik sathdagi “Oraliq uchinchi”larni sharhlang.
8. Sintaktik sathdagi “Oraliq uchinchi”larni sharhlang.

¹ Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. – Toshkent: “Fan”, 1995.; Orifjonova Sh. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya. Filol.fanlari nomzodi ...diss. – Toshkent, 1996.

² Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. – Toshkent: “Fan”, 1995.

6-mavzu. LISONIY TIZIMNING POG'ONAVIY (IERARXIK) QURILISHI TAMOYILI

Formal-funksional yondashuvning pog'onaviylik tamoyili tilshunoslikda qabul qilingan umumiy ierarxik munosabatlardan farq qilmaydi.

Formal-funksional tadqiqotlarda funksional lingvistikating lisoniy makro va mikrosistemalar orasidagi ierarxik munosabat omili bunday pog'onaviy (ierarxik) zanjirning har bir bo'g'ini gipo-giperonimik munosabatlari bilan bog'lanishini ochish va tasvirlash bilan boyitildi. Lisoniy ierarxik sistemaning gipo-giperonimik munosabatlari bilan bog'langan bo'g'indan iborat ekanligi leksik tizimda, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi.¹

Keyingi yillarda tilning ierarxik qurilishga ega ekanligi ko'pchilik olimlar tomonidan tan olinyapti. Tashkil etuvchilar bilan butunlik orasida ierarxik (pog'onali) – butun bilan bo'lak bog'lanishi mavjud.

Ierarxik munosabat til birliklarining sathma-sath qatlamlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyi sath qatlamlari yuqori sath qatlamlari bilan gipo-giperonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi fonemalar ma'lum bir butunlikni, bir sathni, ya'ni fonologik sathni tashkil etadi. Fonologik sath esa ikki qismidan: unli va undoshlar tizimidan iborat. Bu ikkala tizim ham, o'z navbatida, alohida butunlik sifatida tashkil etuvchilarga ajraladi: unlilar lablangan va lablanmagnlarga, undoshlar esa jarangli va jarangsizlarga va h.k.

Lug'aviy tizimning o'zi murakkab – bir necha tarkibiy qismlarning (tashkil etuvchilarning) birikishidan tashkil topadi. H. Ne'matov o'zbek tili lug'aviy tizimining ierarxik (pog'onali) tuzilishini shunday tasvirlaydi: o'zbek tilining lug'aviy tizimi mustaqil leksemalarga, yordamchi leksemalarga va undov leksemalarga bo'linadi. O'z navbatida, mustaqil leksemalar esa ishora ma'noli leksemalar – olmoshlarga va atash, nomlash vazifasini bajaruvchi atovchi leksemalarga, yordamchi leksemalarga, bog'lovchilarga, ko'makchilarga, yuklamalarga ajraladi. Atovchi leksemalar esa, o'z navbatida, ot, sifat, son, fe'l va ravishga bo'linadi. Ularning har qaysisi

yana o'nlab mavzu (tematik) guruhlariga, bularning har biri esa yana ham kichikroq ma'no guruhlariga – alohida, yakka so'zga yetib kelguncha pog'onali ravishda bo'linib kelaveradi.¹

O'zbek tilida o'simlik nomlari leksemalari tizimi (qisqacha O'NLT)ni maxsus tadqiq etgan G. Ne'matova, bu tizimning pog'onaviy (ierarxik) qurilishga ega ekanligi, u 7-8 bosqichli tizimmi tashkil etishi, "O'zbek tili izohli lug'ati"dan o'rinni olgan 400 dan ortiq o'simlik nomlari leksemalarining har biri ana shu 7-8 bosqichning ma'lum bo'g'inidan joy olishi haqidagi xulosaga keladi.²

Tadqiqotchining fikricha, bu tizimda "o'simlik" yadroviy markazi eng yuqori pog'onada tursa, ya'ni 1-bosqichda tursa, uzumning ko'rinishlari (oq xalili – qizil xalili) eng quyi, ya'ni 7-bosqichda turadi. Ushbu ierarxik tizimda har bir bosqich o'z markaziga va qurshoviga ega. Masalan, [oq xalili], [qizil xalili] leksemalari [xalili] giperonimi (markazining) qurshovini tashkil etadi.

[Xalili] esa, o'z navbatida, [uzum] giperonimining qurshovini tashkil etadi. [Uzum] esa navbatdagi bosqichda xonaki (madaniy meva) giperonimi (markazi)ning qurshovini tashkil etadi. U esa keyingi bosqichda [meva] markazining giponimini, [meva] esa "hosilli o'simliklar" qurshovini, [hosilli o'simliklar] esa [daraxt] leksemasi qurshovini, [daraxt] esa, o'z navbatida, [o'simlik] leksemasining qurshovini tashkil etadi.³ Demak, [oq xalili], [qizil xalili] leksemalari [o'simlik] leksemasi bilan ierarxik qurilishi gipo-giperonimik (jins-tur) munosabatlari kirishadi. Pog'onaviy qurilishda istagan bo'g'indagi (bosqichdagi) qurshov o'z markaziy leksemasi bilan gipo-giperonimik munosabatlarda turadi; giperonim vazifasini markaziy leksema, giponim vazifasini qurshov leksemalari o'taydi. Bir bosqichda giponim (qurshov) bo'lgan leksema o'zidan quyidagi bosqich uchun giperonim (markaz) vazifasini bajarishi mumkin. Bu hol markaz (giperonim) va qurshov (giponim) tushunchalarining nisbiyligini ko'rsatadi.

Bunday ierarxik sistemada shu xususiyatni hisobga olish kerakki, ierarxik gipo-giperonimik tizimning barcha bo'g'indari uchun shu ierarxik tizim o'z ichiga olgan barcha birliklar bir xil ahamiyatga ega emas; har bir bo'g'in uchun uning markazi va qurshovi ahamiyatlidir.

¹ Народова М. Семантическая структура языка существенных возрастных характеристики лица в узбекском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1992. Saidova X.A. O'zbek tilida hayon nomlarining shaxs vazifasiida zo'llanshi. Filofanlari nomzodi ...diss. avtoref. – Tashkent, 1995.

² Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asosları. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

³ Ne'matova G. O'zbek tilida o'simlik nomlari leksemalari: tizimi va badiiy qo'llanishi. Filofanlari nomz. ...diss. avtoref. – Tashkent, 1998.

³ O'sha joyda.

Chunonchi, I bo'g'in uchun markaziy leksema [o'simlik] va uning qurshovi ("daraxt", "tok", "buta", "sabzavot 1", "sabzavot 2", "o't", "qo'ziqorin" leksemalari) relevantdir. Lekin ikkinchi bo'g'inning qurshovi (ya'ni madaniylik yoki yovvoyilik) I bo'g'in uchun ahamiyatsizdir. Shu usul bilan har bir gipo-giperonimik qurshovdan faqat markaziy element (giperonim, dominanta) shu qurshovdan kattaroq bo'lgan bo'g'inga element sifatida kiradi, xolos. Shuning uchun har bir giponimik qurshov hamisha ochiq bo'ladi va uning tarkibi o'zgarib turadi.

Lug'aviy ma'no guruhlari ham ikki qismdan – markaz va qurshovdan iborat bo'ladi. Lug'aviy ma'no asosi bir necha leksemadan tashkil topgani holda, lug'aviy ma'no qurshovi bosh leksemalarning ma'nodoshlik va darajalanish qatorlari birliklarini, sof nutqiy ma'nodoshlarni o'z ichiga oladi. Qurshovni tashkil etuvchi birliklar lug'aviy ma'no guruhlari asosidan bir necha marta ortiq bo'ladi va, ayni paytda, doimo ochiq tabiatga ega bo'ladi. Shu bois, o'sha tizimning qurshovi o'zgaruvchan bo'lib, davrlar o'tishi bilan yo kengayib, yo torayib boradi. Qurshov birliklarining kengayishi va torayishi ular tashkil etgan tizimning mohiyatiga ta'sir qilmaydi.

Har bir bo'g'indagi gipo-giperonimik munosabatlardan iborat bo'lgan ierarxik qurilmalarni O.Bozorov fonologik tizimda, I.Madrahimov so'z turkumlari misolida, H.Ne'matov va Sh.Shahobiddinova grammatik (morfologik) kategoriyalar asosida, M.Abuzaeva sodda gap qoliplari, R.Sayfullayeva qo'shma gap qoliplari asosida berib, bunday tuzilishning umumlisoniy tabiatga ega ekanligini namoyon qilishdi. Jumladan, jo'nalish kelishigi formasi ierarxiyasi bo'g'inlarini quyidagicha berishimiz mumkin:

I bo'g'in: markazi (giperonimi, yadrovi) – morfologik formalar; qurshovi (giponimlari) – a) subyektiv baho formalari; b) forma yasovchilar (lug'aviy shakl yasovchilar; v) aloqa-munosabat shakllari.

II bo'g'in: markazi – aloqa-munosabat formalari; qurshovi – a) hokimlik shakllari; b) tobeklik shakllari; v) neytral formalar.

III bo'g'in: markazi – tobeklik formalari; qurshovi – a) kelishik shakllari; b) ravishdosh shakllari.

IV bo'g'in: markazi – kelishik formalari; qurshovi – a) makon-zamon formalari; b) aniqlik-noaniqlik, kontaktlik-distantlik shakllari.

V bo'g'in: markazi – makon-zamon shakllari; qurshovi – a) jo'nalish kelishigi; b) chiqish kelishigi; v) o'rın kelishigi.

O'z navbatida, jo'nalish kelishigining o'zi umumiyl (lisoniy) sintaktik va semantik qobiliyati asosida umumiyl lisoniy ma'nodan konkret nutqiy ma'noga tomon ierarxik tizimchani tashkil etadi.

M.R.Saidova tomonidan ajratilgan va tavsiflangan, masalan, [VF^{in poss}] modelli bir sostavli sodda gapning *Moskvadan Toshkentga boriladi* gipo-giperonimik qurilishli ierarxiyasi quyidagichadir: I bo'g'in: markaz – sodda gapning umumiyl qolipi [WP_m]; qurshovi – a) 2 sostavli sodda gaplar [IWP_m]; b) 1 sostavli sodda gaplar [IIWP_m].

II bo'g'in: markazi – [IWP_m], qurshovi – a) ism markazli gaplar [WP_m]; b) fe'l markazli gaplar [VF].

III bo'g'in: markazi – [VF]; qurshovi – a) bir sostavli morfologik belgilari bilan izohlangan gaplar [mVF]; b) leksik izohlangan gaplar [LVF].

IV bo'g'in: markazi – [mVF]; qurshovi – a) [VF^{in poss}]; b) [Jn f Praed]; v) [W^{ass} VF_{poss}].¹

Lisoniy birliklarning mohiyatini bunday gipo-giperonimik (markaz-qurshov) tuzilishiga ega bo'lgan ierarxik sistemalardan aniqlash har bir birlik umumiyl (lisoniy) ma'nosini nisbiy tabiatga ega bo'lgan integral va differensial belgilari majmuasi sifatida sharplash imkoniyatini beradi. Bunda markaz (va yuqori pog'onaning) belgilari qurshov (va quyi pog'onalar)ning birliklari uchun integral belgi vazifasini o'tasa, qurshov (quyi pog'ona)ning belgilari shu qurshov birliklari uchun differensial belgi mavqeyida bo'ladi va lisoniy birlikning umumiyl ma'nosini komponent tahlil usulida olib beriladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Ierarxik munosabat nima?

2. Gipo-giperonimik (markaz-qurshov) munosabati haqida gapiring.


3. Fonetik-fonologik sathdag'i gipo-giperonimik (markaz-qurshov) munosabatini sharhlang.

¹ Кеттириган йўқлар ҳақида карант: Saidova M.R. Сравнительно-типологическое исследование единосоставных предложений в русском и узбекском языках. Автороф.дисс. ...канд филол.наук. – Ташкент, 1996.


4. Leksik sathdagi gipo-giperonimik (markaz-qurshov)
munosabatini sharhlang.
5. Morfologik sathdagi gipo-giperonimik (markaz-qurshov)
munosabatini sharhlang.
6. Sintaktik sathdagi gipo-giperonimik (markaz-qurshov)
munosabatini sharhlang.

7-mavzu. LISONIY TIZIMDA MARKAZ-QURSHOVLILIK TAMOYILI

Formal-funksional yondashuvning markaz-qurshovlilik tamoyili ierarxik (pog'onaviylik) omili bilan uzviy bog'liq. Formal-funksional yo'nalish talqinlarida sinonimik va graduonimik qurshov (yoki qatorlar) har bir lisoniy birlikning faqat o'ziga xos xususiyati deb baholanadi va shu lisoniy birlik mansub bo'lgan ierarxik sistema va sistemalarga bevosita daxldor emas. Har bir lisoniy birlik (fonema, morfema, leksema, model) o'z mustaqil sinonimik va graduonimik qurshoviga ega bo'la oladi, lekin ierarxik tizimlarga bunday sinonimik va graduonimik qatorlardan faqat qatorning bosh (yetakchi) birligi (dominantasi)gina kiradi. Bunday sinonimik va graduonimik qurshov birliklarining butun tizim bilan aloqalari o'z dominantalari orqali bo'ladi. Shuning uchun bunday qatorlar hamisha ochiq bo'ladi va davr talabi, nutq egasining saviyasi, hayot sharoitiga ko'ra tez-tez o'zgarib turadi va bunday o'zgarishlar butun sistemaning qurilishi va uning barqarorligiga mutlaqo ta'sir etmaydi. Bayon etilgan umumiyy fikni lisoniy sathning har bir birligi asosida sharhlashimiz mumkin. Tahlil uchun qulay bo'lganligi sababli sharhimizni lug'aviy birliklarda sinonimiya va graduonimiya munosabati misolida ko'rib o'tamiz.



Misol tariqasida, bitta LMG (lug'aviy ma'no guruhi)ni – ulov LMGsini olaylik. Tadqiqotchi R.Safarova ko'rsatganidek,¹ bu LMGning markazini [ulov] leksemasi tashkil etadi. Buni chizmada quydagicha aks ettirishimiz mumkin:



Bu LMGning giponimlari, ya ni ot, xachir, eshak, o'z navbatida, giperonim sifatida chiqishi mumkin va bu imkoniyat o'zbek tilida, asosan, [ot] leksemasida va qisman [eshak] leksemasida voqelanadi.

[ot] leksemasining o'zi o'zbek tili gipologik leksikasini tadqiq etgan R.Safarova ko'rsatganidek,² bir necha yuz giponimlарini birlashtiradi va ular [ulov] LMGning 2-3-4 qurshovini tashkil etadi. Lekin, ayni paytda, [ot] leksemasining o'zining sinonimlari bor: markab, asp, bolalar nutqida chuh-chuh va b. Bu sinonimlar tizimga mutlaqo aloqador emas.

Nutqda esa ot so'zi – [ot] leksemasiga ma'lum bir kontekstda yuzlab so'zlar qiymatdosh yoki N.Qosimova atamasi bilan aytganidek, "so'z ma'nodoshi" bo'lib keladi.³ Lug'aviy tizimga bu so'zlarning birortasining aloqasi yo'q. Xuddi shunday hodisani jins jihatidan

¹ Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке (на материале общеупотребительных терминов). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990.

² Сафарова Р. Южордаги асрар.

³ Qosimova N. Osa tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshi bilan boyitish. // Pedagogika fanlari nonzodi ...diss.avtoref. – Тошкент, 1998.

farqlanuvchi LMGida ham ko'rishimiz mumkin. Bu tizimdag'i [xotin] so'zi [ayol], [xotin-qiz], ba'zan [xotin-xalaj] kabi sinonimlariga ega bo'lib, ularning giponimik tizimiga mutlaqo aloqasi yo'q.

Shuningdek, [xotin] nutqda yuzlab qiyatdoshlarga, so'z ma'nodoshlariga ega bo'lishi mumkin, uning ham yuqoridagi tizimga aloqasi yo'q.


Tilshunosligimizda klassik misol vazifasini o'taydigan *chehra*, *oraz*, *ruxsor*, *jamol*, *yuz*, *bet*, *aft*, *bashara*, *turq* kabi leksemalar uslubiy, ijobjiy-salbiy munosabat bo'yicha sinonimik qatorni tashkil qiladi. Lekin B.Qilichev ko'rsatganidek,¹ *yuz*, *peshona*, *soch* kabi odam boshining old qismi partonimik guruhiga yuqorida sanalgan leksemalarning hech birining aloqasi yo'q. Ya'ni:

[soch] – [peshona] – [chehra] deb ayta olmaymiz.

[Chehra] leksemasi tizimga aloqador, lekin tizimning ichidan joy olmaydi, uning tizim bilan aloqasini quyidagicha aks ettirishimiz mumkin:

[soch] — [peshona] —

Boshqa sinonimlar haqida ha [chehra] shu fikrlarni aytishimiz mumkin. Endi leksik graduonimli m qurilishiga aloqador emasligi haqidagi masalaga to'xtalamiz. Yana yuqoridagi:



tizimiga qaytamiz. Bu yerda [ot] leksemasining, R.Safarova, Sh.Orifjonova, O.Bozorov va boshqalar ko'rsatib o'tganidek,

[toy] – [qulun] – [g'o'nan] – (do'nan] – [ot]

¹ Qilichev B. O'zbek tilida partonimiy: Filol.fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 1997.

kabi graduonimik qatoriga

[uy] leksemasi esa

[kulba] – [hujra] – [uy] – [hovli] – [ko'shk] – [qasr] – [saroy] – [koshona]

qatoriga ega. Bu qatordagi so'zlardan faqat [ot], [uy] leksemalarigina tizimdan o'rinn ola oladi. Agar graduonimik va sinonimik qatorlari bilan birgalikda olingan [ot] leksemasining ierarxonimik tabiatga ega bo'lgan 4-chizmadagi o'mini belgilamoqchi bo'lsak, u quyidagicha bo'ladi:

[ulov]

[toy] ~ [qulun] ~ [g'o'nan] ~ [do'nan] ~
[ot]

[otning turlari]

[ot turlarining xillari]

ot turlari xillarining
ko'minishlari va b.

Morfologik tizimda ham sinonimik va graduonimik munosabatlar faqat lisoniy birlikning o'ziga aloqadordir. Chunonchi, jo'nalish kelishigi kelishiklar paradigmaidan quyidagicha joy oladi:

[bos kelishik] ~ {[tushum kelishigi] ~ [qaratqich kelishigi]}

{[-ga] ~ [-dan]} ~ [-da]}

Jo'nalish kelishigining qanday qoshimchalar bilan yasalishi, uning har xil variantlari, shubhasizki, bu tizimga aloqasiz.

Xuddi shuningdek, o'zbek nutqida jo'nalish kelishigiga sinonimik hosilalar turli yo'nalishda ham atroficha o'rganilgan.¹

Chunonchi: 1. Kelishik – kelishik sinonimiysi;

a) -ga ~ - ni;

otga minmoq, otni minmoq

b) - ga ~ - dan;

gapirishga ko'rqli, gapirishdan qo'rqli.

v) - ga ~ - da

majlis ertaga bo'ladi, majlis soat o'nda bo'ladi.

2. Kelishik – ko'makchi sinonimiysi.

a) - ga ~ uchun;

akamga oldim, akam uchun oldim

b) - ga ~ tomon;

uyga ketmoq, uy tomon ketmoq

v) - ga ~ sari;

kelajakka intilmoq, kelajak sari intilmoq.

Shubhasizki, jo'nalish kelishigining bunday funksional sinonimlarining 11-chizmada berilgan kelishik paradigmaiga hech qanday aloqasi yo'q.

Morfologik hodisalarda darajalanish hodisasi (graduonimiya)ning voqelanishi o'zbek tilshunosligida o'rganilmagan. Lekin shunga qaramay, umumiyliz tizimdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, morfologik sathdagi darajalanish ham tizimga aloqador emas. Jumladan, jo'nalish kelishigining nutqiy ma'nolari manbagaga yo'nalishdan manbara tegishli va manbani qamrab olish amplitudasida (miqyosida) ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Masalan:

a) *otga qaramoq*;

b) *otga yo'nalmoq*;

v) *otga yaqinlashmoq*;

g) *otga yetmoq*;

d) *otga minmoq* va h.k.

Mana bu qatorda harakatning obyektga ta'sirining turli darajasi aks etgan va harakatning obyektga ta'sir kuchi *qaramoqdan minmoqqa* tomon ortib boradi. Bu so'zning (ya'ni *qaramoq*, *yo'nalmoq*,

¹ Зоярова М. Дательный падеж в узбекском языке. Автореф.дисс....канд.филол.наук. – Самарканд, 1966.

yaqinlashmoq, *yetmoq*, *minmoqning*) lug'aviy ma'nosiga aloqador bo'lib, kelishik paradigmaiga aloqador emas.

Sintaktik sath birliklaridagi sinonimiya masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, shuni aytishimiz kerakki, an'anaviy sintaksismizda ham tilshunoslar tomonidan to'la-to'kis tan olinadigan ayni bir gapni turli ohang bilan talaffuz etib, darak, so'roq, buyruq, his-hayajon, undov gaplar hosil qilish mumkin. Bunday gaplarning sintaktik qurilishga mutlaqo aloqasi yo'q. Formal-funksional yo'nalish bunday sinonimlar chegarasini yana ham kengaytirib yuboradi. Jumladan, M. Abuzalova, M.Saidovalar ko'rsatganidek,¹ "Kecha ishga bormadim" va "Men kecha ishga bormadim" gaplari mohiyatan ayni bir sintaktik qurilmadir. Egali va egasiz, yoyiq va yig'iq, kengaygan va kengaymagan gap qoliplari bitta qolipning, bir umumiylikning turli tartibda voqelanishi deb baholanadi va gap paradigmatisida, asosan, ikkita qolip: [WP_m] – {[WP_m] V [WP_m]}) kabi munosabatlar ajratiladi. O'zbek nutqidagi barcha turdag'i son-sanoqsiz gaplar shu ikki qolipning xilma-xil darajada kengaygan, turlicha murakkablashgan hosilalari sanaladi. Gapning mazmuni, ohangi, murakkablashgan-murakkablashmaganligi, real va irrealligining sintaktik paradigmaga, umuman, aloqasi yo'q.

O'zbek tilshunosligida yangi yo'nalish sifatida shakllangan va rivojlanayottan formal-funksional yo'nalishning asosiy tahlil usullari, tamoyillari mana shulardan iborat bo'lib, yo'nalish o'zi asoslagan shakllar asosida o'zbek tilining to'liq tavsif va qurilishini berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu sohada jiddiy ishlar amalgalashdi. Fonetika,² leksikologiya,³ morfologiya,⁴ sintaksis⁵ bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari uchun o'quv qo'llanmalari va darsliklar yozildi va yo'nalish tahlil usullari ommalashdi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Sinonimik va graduonimik qurshov ierarxik sistemaga qaydarajada aloqadorligini tushuntiring.

¹ Abuzalova M. O'zbek tilida sodda zapnijeng eng kichik qurilish qolipi va uning nutqida voqelanishi: Filofanlari nomzodi...dis. – Toshkent, 1994.; Saidova M.R. Сравнительно-типологическое исследование единственно составных предложений в русском и узбекском языках. Автореф.дисс....кинфилол.наук. – Ташкент, 1996.

² Ne'matov H. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.

³ Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1995.

⁴ Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент: "Фан", 1989.

⁵ Ne'matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O'zbek til strukturni sintaksi asoslari. – Toshkent: "Universitet", 1999.

2. Fonetik-fonologik sathdagi gipo-giperonimik (markaz-qurshov)
munosabatini sharhlang.

3. Leksik sathdagi gipo-giperonimik (markaz-qurshov)
munosabatini sharhlang.

4. Morfologik sathdagi gipo-giperonimik (markaz-qurshov)
munosabatini sharhlang.

5. Sintaktik sathdagi gipo-giperonimik (markaz-qurshov)
munosabatini sharhlang.

8-mavzu. FORMAL-FUNKSIONAL YO'NALISHDA LISON VA UNING TABIATI

Formal-funksional tadqiqot (yo'naliш) talqinlarini to'g'ri tushunish va uning natijalarini baholashda eng asosiy omil bu yo'naliшda lison (til)ning tabiat qanday talqin qilinishini to'g'ri uqishdir.

Formal-funksional yo'naliшning tadqiq usullari, asosiy tamoyillari bilan tanishtirib bo'lgach, sistemaviy tilshunoslikning eng asosiy tushunchasi – lison (til) ~ nutq bo'linishining, lison va nutq tabiatining bu yo'naliшda qanday talqin etilishi masalasi ustida ham to'xtalib o'tishimiz kerak. Agar bu masalani chetlab o'tsak, formal-funksional yo'naliшning mohiyati to'la ochilmay qoladi. Odatda, tilshunoslik yo'naliшlarini tavsif qilayotganda, tilshunoslar sistemaviy tilshunoslikning fundamental masalasini – lison(til) ~ nutq (ya'ni til va nutqni farqlash) muammosining qanday tushunilishini izohlashdan boshlaydilar.¹

Biz esa dastlab mazkur yo'naliшning tahlil usullari va tamoyillarini ko'rib o'tib, undan keyingina formal-funksional yo'naliшda lison – nutq farqlanishi (dixotomiya)ning izohiga o'tishni ma'qul ko'rdik. Buning sababi quyidagicha: birinchidan, bu masala H.Ne'matov va O.Bozorovlarning risolasida maxsus ko'rib o'tilgan² va bu o'rinda ularni takrorlashga hojat yo'q; ikkinchidan, dastlab formal-funksional tahlilning asosiy tamoyillari va tahlil usullari bilan tanishgach, lison va nutq tabiatini sharhash ancha osonlashadi. Zeroki,

lison va nutq farqlanishini tushuntirish uchun zarur bo'lgan zot (substansiya) – tajalli (refleksiya), umumiylit – xususiylik, mohiyat – hodisa, imkoniyat – vogelik, sabab – oqibat, invariant – variant, ierarxiya – qator kabi tushunchalar yuqorida berilgan fonologik/fonetik, grammatik, leksik lisoniy va nutqiy hodisalar sharhi asosida uqilgan bo'ladi. Formal-funksional yo'naliшda lison zot, umumiylit, mohiyat, imkoniyat, invariant, ierarxiya sifatida, nutq esa xususiylik, hodisa, vogelik, variant, qator sifatida tushuniladi. Yuqorida berilgan fonologik, morfologik, sintaktik hodisalarning lisoniy va nutqiy mohiyatidan biz qiyosan xulosa chiqara olamizki, lison bu yo'naliшda ijtimoiy psixofiziologik hodisa sifatida tushuniladi, lekin u sof ijtimoiy, sof psixik hodisalar kabi moddiyliklardan xoli emas.

Lison formal-funksional yo'naliшda shunday ijtimoiy psixofiziologik hodisaki, uning har bir birligi o'z ichida moddiylikka ishorani mujassamlashtirgan bo'ladi. Fonemalarda bu differensial belgilar (ya'ni moddiy artikulyatsion va fizik xususiyatlar) bo'lsa, morfemada bu umumiylit grammatik ma'no (lisoniy ma'no) ning ma'lum fonemalar tizmasida, ya'ni moddiylikda mujassamlanganligida, sintaktik qoliplarda esa sintaktik qolipning mazmun va shakl tomonlariga ajratilishida ko'riladi.

Formal-funksional yo'naliшda lison moddiylikka ishorani o'z ichiga olgan ijtimoiy psixofiziologik hodisa deb qaralsa, nutq bu mohiyatning muayyan moddiy shaklda (muayyan zamon va makonda) vogelanish mahsuli sifatida qaraladi. Lisoniy birlikkarda moddiy tomon haqida faqat tasavvur, ishora mayjudligi va aksincha, nutqiy vogelanishlarda muayyan moddiy shakl va ko'rinishga ega bo'lganligi, lisoniy birlikning moddiy tomoniga ishorasi nutqiy birlikkarda rang-barang moddiy ko'rinishlarda vogelana olishi sababli bu yo'naliшda me'yor tushunchasi juda keng tushuniladi. Bu yo'naliшda me'yor ma'lum bir jamiyatda odat (rasm, norma) tusiga kirgan holatlardan boshlab, nutq sharoiti zarurati va talablari, so'zlovchi va tinglovchi saviyalari qamrovigacha bo'lgan omillarni o'z ichiga oлади.¹

Til – me'yor – nutq bir mukammal jarayonning, ya'ni nutq faoliyatining turli tomonlari sifatida namoyon bo'ladi. Ayni vaqtida, ularning har birining o'z xususiyatlari bor. Til bevosita kuzatishda

¹ Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. – М.: Просвещение, 1966; Основные направления структурализма. (Под ред. Ахманова). – М., 1965; Незматов Х., Расулов Р. Узбек тили систем лексикологии асослари. – Тошкент, 1995.

² Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: "O'qituvchi", 1993.

berilmagan bo'lib, fikri shakllantirish va ifodalashga xizmat qiladigan tayyor birlıklarning o'zaro munosabatlari tizmasidir.¹ U jamiyat a'zosining ongida muayyan imkoniyat, umumiylit sifatida mavjud. Me'yor ushu imkoniyatni muayyan shakl va ko'rinishlarda yuzaga chiqishini belgilab beradi, nutqda esa bu imkoniyat (umumiylit) me'yor darchasidan o'tib, aniq moddiy shakl va ko'rinish oladi, xususiyliklar sifatida yuzaga chiqadi, voqelikka aylanadi.²

Lison va nutq farqlanishi bilan lisoniy ma'no va nutqiy ma'no (umumiylit ma'no va xususiy ma'no), lisoniy birlik ~ nutqiy birlik tushunchalari uzviy bog'liq. Lisoniy birlik va lisoniy ma'no lisonning o'zi kabi ijtimoiy psixofiziologik yoki psixo-funksional tabiatga ega bo'lib, albatta, moddiy tashuvchiga ishorani o'z ichiga oladi. Nutqiy va nutqiy birlik konkret fizik-semantik yoki fizik-funksional tabiatga ega bo'ladi, ya'ni qo'llanilgan sharoitiga mos moddiy shaklga va ichki mazmunga ega bo'ladi.

Lisoniy ma'no va lisoniy birlik, nutqiy ma'no va nutqiy birlik orasidagi munosabatlar, ta'kidlanganidek, tasavvufning zot va tajalli, kull va juzv, dialektikaning substansiya va refleksiya, umumiylit va xususiylik, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik kategoriyalari talqinida tushuniladi. Shuning uchun formal-funksional yo'nalihs nutqiy voqeliklardan boshlab lisonning o'zigacha bo'lgan qamrovdag'i mohiyat-hodisalarini bir xil metodologik asos – zot ~ tajalli (substansiya ~ refleksiya) talqini asosida sharhlagani sababli mukammal ilmiy talqin shaklini oladi. Uning o'z tahlil usullarini fonetika hodisalaridan boshlab sintaksis-u uslubiyatgacha bo'lgan rang-barang nutqiy va lisoniy hodisalargacha izchil va ongli qo'llay olgani esa bu yo'nalihs yaxlit tilshunoslik ta'limoti darajasiga ko'taradi.

Shu o'rinda formal-funksional atamasining o'zi to'g'risida to'xtalishimiz lozim. Bu yo'nalihs kurtaklarini shakllantirgan S.N.Ivanov o'z tadqiqotlarida substansial yondashuv atamasidan foydalangan edi va hozirda ba'zi tilshunoslar ham ushu atamani qo'llaydilar. Substansiya – (uning Sharq falsafasidagi qiymatdoshi zot) falsafiy tushunchadir. Zoti (substansial) yondashuv deganda tadqiq manbayiga falsafiy yondashishning bir ko'rinishi tushuniladi. Shuning

uchun nazarmizda **zotiy yondashuv** lingvistik atama vazifasini o'tay olmaydi.

S.Ivanov talqinlaridan rivojlanuvchi bu yo'nalihsni H.Ne'matov **substansial dialektik** deb atagan edi. Biroq bu atama ham mohiyatan falsafiy bo'lganligi sababli ommalashmadidi. 1984-yilda "Tezislar" mualliflari¹ formal-funksional atamasidan foydalananishdi, shundan so'ng bu atama fanimizda tez ommalashdi.² Shunga qaramay, haligacha **formal-funksional** atamasi mazmun jihatidan ochib berilmadi. Bu atamada qo'shaloq – *forma* va *funksiya* tushuncha va so'zlarining ishlatalishiga sabab shuki, mazkur yo'nalihsda tadqiq manbayi – zot istalgan kattalikdag'i lisoniy birlik shakl (*forma*) va vazifa (*funksiya*) majmuasi sifatida qaraladi. Bu yerda nima birlamchi, nima ikkilamchi savoli qo'yilishi mumkin emas; shaklning mohiyati vazifalar majmuyi sifatida qaraladi va bu vazifalar muayyanlikda shakl sifatida voqelanadi. Vazifasidan, paradigmidan ajratilgan shakl ushu yo'nalihsda mutlaqo izohlanmaydi. Shu sababdan, fanimizdag'i bu yo'nalihsning lingvistik nomi sifatida **formal-funksional** yo'nalihs atamasi qulaydir. Bunday yo'nalihsning falsafiy-metodologik asosiga nisbatan zotiy (substansial) yondashish atamasini qo'llagan ma'qul. Lisoniy birlıklarning formal-funksional tadqiq usuli bilan ochilgan va tavsiflangan mohiyatga nisbatan lisoniy birlikning zotiy mohiyati yoki zotiy tabiatni atamasini qo'llash maqsadga muvofiq. Shuning uchun gapning eng kichik qurilish qolipining kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi (ya'ni [WP_n]) deb qaralar ekan, minimal gapning lisoniy-zotiy tabiatni nazarda tutiladi. Bu gapning umumiylit mohiyati ham emas, universal ta'rifli ham emas, balki o'zbek tilida gap vazifasini bajarish uchun (ya'ni ma'lum bir vazifa uchun) ixtisoslashgan shakldir. Boshqacha qilib aytganda, o'zbek tilida gapni eng kichik ko'rinishda shakllantirish vazifasi [WP_n] da mujassamlashgandir.

¹ Нигматов Х., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухамедзода Д.А., Нуралиев А. Структура язашиниши таъсирини олдиликнига ишлаб чирадиганнига оид. Узбекистон Республикаси макалалари жойи. Ташкент, 1984. – №5. – С. 3-10.

² Abuzarova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qilipi va uning natqliga voqelashida: Filol. fanlari nomzodi... diss. – Toshkent, 1994; Sayfullayeva R., Abuzarova M. Gapning eng kichik qurilish qiliplari haqidagi O'zbek tili va adabiyoti. – 1991. – № 5. – 42-47-b; Sayfullayeva R.R. Haorigi o'zbek adabiy tilida qu'shara gapning shakl-varzifaviy (formal-funksional) talqini: Filol. fanlari d-ri... diss. avtorof. – Toshkent, 1995; Akramov Sh. O'zbek tilining gap qurilishida to'kkarachi va hol... (WP_n valentligi aspektida): Filol. fanlari nomzodi... diss. – Toshkent, 1997.

¹ Абдуллаев Ю.Д. Ключ к методике современной структурной лингвистики. – М.: "Прогресс", 1966.
² Ne'matov H., Ruzailov R. O'zbek til sistemasidagi klassifikasiyasi modelari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1995.

Til birliklari talqiniga zotiy yondashuv asosida shakllangan formal-funksional tadqiq fanimizda o'ziga xos yangi yo'nalish sifatida tilshunoslikdan ajralib chiqayotganligini alohida ta'kidlab o'tishimiz zarur. Bu yo'nalish fanimizda sistem tilshunoslikning funksional yo'nalishi, tasviriy tilshunoslikning formal asoslari (Fortunatov - Shaxmatov - Vinogradov - G'ulomov) tahlil usullari hamda islomiy tasavvuf va dialektikada tadqiq manbayiga zotiy (substansial) yondashuv metodologiyasi asosida shakllangan alohida bir tahlil usuli bo'lib, o'zbek tilining ichki qurilish xususiyatlari tayanadi. Formal-funksional yo'nalish jahon falsafiy fikri va tilshunoslikning shu kungacha qo'lga kiritgan yutuqlari asosida shakllangan va rivojlanayotgan mustaqil yo'nalishdir. Uni jahonda mayjud bo'lgan tilshunoslik oqim va maktablarining birortasiga aynan tenglashtirish yoki bevosita nisbat berish ilmiy noxolislik bo'ladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

- 1. Formal-funksional yo'nalishda lison va nutq tabiatini qanday talqin qilinadi?*
- 2. O'zbek tilshunosligida til va nutq dixotomiyasini o'rgangan mualliflar kimlar? Ular qanday ishlarni amalga oshirganlar?*
- 3. Formal-funksional yo'nalishning nomlanishiga doir bahs-munozaralarga diqqat qiling. Bu nomlanishni qay darajada to'g'ri yoki qay darajada noto'g'ri deb hisoblaysiz?*
- 4. Lison va nutq dixotomiysi fanda yana qanday kategoriyalar bilan nomlanadi?*

9-mavzu. TIL HODISALARINI QOLIPLASHTIRISH VA LISONIY SINTAKTIK QOLIP TUSHUNCHASI

LSQLar tilshunoslikda keng tarqalgan qoliplashtirish (lingvistik modellashtirish) usuli orqali aniqlanadi.

Qoliplashtirish ham amaliy, ham nazariy metod sifatida fanda uzoq vaqtidan beri qo'llanilib keladi.¹

¹ Кодуров В.И. О汾е коммуне. - М.: Выш. шк., 1974.

Qoliplashtirish usuli, ma'lumki, bevosita kuzatishda berilmagan, bizning sezgi a'zolarimiz orqali anglanmaydigan hodisalarni o'rganishda qo'llaniladi. Chunki bevosita kuzatishda narsaning tadqiq manbayining faqat tashqi, yuzaki belgi-xususiyatlari o'rganilishi mumkin. Narsaning (masalan: til birliklarining) ichki belgi-xususiyatlarini, uning butun murakkabliklarini bevosita kuzatish, o'rganish mumkin emas. Masalan, leksemaning semalar tarkibini bevosita sezish mumkin emas, chunki semalar bizning sezgi a'zolarimiz qabul qiladigan ifoda tomonlarga ega emas.¹ Xuddi shuningdek, LSQLarni ham bevosita kuzatish, his qilish mumkin emas. Ana shu vaziyatda tilshunoslar manbani bevosita kuzatishdan voz kechib, ularni o'rganishning bilvosita usullariga murojaat qilishadi. Lingvistik modellashtirish (qoliplashtirish) ana shunday usullardan biridir. Bu usulda tilshunos bevosita tabiiy obyektni (originalni) emas, balki uning analogini, modelini tahlil qiladi.²

Qoliplashtirish usuli ma'lum bir qonuniyatlariga bo'ysunadi. Qoliplashtirish ta'limoti tadqiq manbayi bo'lgan analog originalning tabiatini va turi hamda qoliplashtirilayotgan obyektga bog'liq bo'lмаган holda qoliplarga muayyan talablarni qo'yadi.³

LSQLar bu yo'nalishda asosiy tushuncha bo'lganligi uchun qolip, qoliplashtirish va uning ahamiyati haqida fanda oldindan mavjud bo'lgan bu talablarni⁴ LSQLarga qiyosan sharhlashga harakat qilamiz.

Qolip tadqiqot obyektni to'laligicha aks ettirishi shart emas. Qolipning vazifasi murakkab originalning muayyan tadqiq bosqichidagi eng muhim xususiyat va munosabatlarni tuzish yoki aks ettirishdir. Buning uchun tadqiqot obyekting xususiy va nomuhim jihatlarini e'tibordan soqit qilishga to'g'ri keladi. Masalan, sodda gap LSQi ham gapning o'nlab belgi-xususiyatlaridan soqit qilinib, "kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi" sifatida talqin qilingan va [WP_m] ramzi bilan belgilangan. Sodda gaplarning an'anaviy sintaksisdagi bir necha jihatdan tasnifi uchun asos bo'lgan belgi-xususiyatlari sodda gap mohiyatini, uning alohida

¹ Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. - Ташкент: Фан, 1986.

² Уша асарда.

³ Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. - Ташкент: Фан, 1986; Мельчук И.А. Математический синтаксический анализ. - Новосибирск, 1964. - С. 8.

⁴ Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. - Ташкент: "Фан", 1986.

kategoriya sifatidagi zotiy belgisini aniqlashda (belgilashda) e'tiborga olinmagan.

Original va uning qolipi tashkil etuvchilarning yetarli darajada murakkab tizimi bo'lsagina, qoliplashtirish o'zining mazmuniga ega bo'ladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, original, ya'ni tadqiq manbayi juda jo'n va sodda bo'lsa, qoliplashtirish usuli hech qanday qiyamatga ega bo'lmaydi.

Qolip evristik vazifani bajarishi, ya'ni nazariy tekshirishda, yangiliklar kashf etish jarayonida qo'llanadigan mantiqiy usullarga, unumli ijodiy fikrlashga omil bo'la olishi kerak. Shuningdek, qolip yangi nazariya va g'oyalarga yo'l ochuvchi ilmiy-nazariy qarashlarni egallash uchun vosita bo'lib xizmat qilishi kerak. Chunonchi, LSQLar sodda gap haqidagi yangicha talqinlar, yangicha ilmiy-nazariy qarashlar uchun asos vazifasini o'tashi kerak. Zero, LSQLar umumiylilik tabiatiga ega bo'lib, har qaysi muayyan so'z birikmasi va gaplar xususiyliklardir. Har qanday xususiylik esa umumiylikka qiyosan o'rganiladi.

Lingistik qolipning ijtimoiy qiyamatini, uning ziddiyatsizligini va tushuntirish kuchining darajasini aniqlashning eng yaxshi usuli qolipni amaliyatda sinab ko'rishdir. Amaliyatda muvaffaqiyatlari qo'llanilgan qolipning ijtimoiy qiyamatga, ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'ladi.

Lingistik qoliplashtirish usulida shu narsa muhimki, dastlabgi bosqichda til hodisalar qoliplashtiriladi, keyingi bosqichda esa hosil qilingan qoliplar o'sha til hodisasiga qaytadan tatbiq qilinadi va bu keyingi bosqichda hodisaning murakkab qirralari yoki yangi bir qirrasi ochiladi. Shu tariqa, hodisa ortida yotgan, yashiringan mohiyat aniqlanadi. Shu bois, formal-funksional tahlilda nutqimizdagi so'z birikmalari va gaplarni bosqichma-bosqich umumlashtirib, ularni LSQLarga birlashtirish bilan cheklanib qolmay, ushbu aniqlangan LSQLarning nutqda qanday voqelanishi masalasiga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Qoliplashtirish usuli haqida gap ketganda shuni ta'kidlash joizki, tilshunoslikda gapni qoliplashtirish uch xil bosqichda amalga oshiriladi va shu bilan bog'liq ravishda gapning uch xil qolipi aniqlanadi:

- 1) gapning yuza qurilish qolipi;
- 2) gapning ichki qurilish qolipi;
- 3) gapning mohiyatiy (zotiy) – lisoniy qolipi.

Gapning yuza qurilish qolipi nutqiy hosilalarning umumlashmasi sifatida hosil qilinadi. Masalan, *Ukam qora qalamni oldi* gapining yuzaki qurilish qolipi quyidagicha:

12-chizma:

Yuqorida gap lisoniy chizma asosida hosil qilinmagan, aksincha, chizma keltirilgan gap asosida hosil qilindi. Ya'ni qolip nutqiy hosilaning mavhum ko'rinishi sifatida hosil qilindi. Demak, bu holatda nutqiy hosila birlamchi, qolip esa ikkilamchidir. Anglashiladiki, bu qolip lisoniy birlik emas. Chunki lisoniy birliklar hech vaqt nutqiy hosilalarga nisbatan ikkilamchi bo'lmaydi.¹

Yuqorida gapning ichki qurilishi, modeli esa quyidagicha:

Ega + II darajali bo'laklar + kesim.

Gapning bu xil qolipi ham nutqiy hosilalar orqali hosil qilingan, shu sababdan, ular ham lisoniy qolip emas. Ta'kidlash kerakki, 1- va 2-xil qoliplar bilan keltirilgan nutqiy gap orasida umumiylilik va xususiylik munosabatlari mavjud. Nutqda shakllangan *Ukam qora qalamni oldi* gapi xususiylik bo'lib, u gap asosida hosil qilingan gap qoliplari esa umumiylidir. Ma'lumki, LSQLar bilan nutqiy hosilalar orasida ham umumiylilik va xususiylik dialektikasi amal qiladi. Farqi shundaki, 1-2-gaplardagi umumiylilik biz izlayotgan bosqichdagi, ya'ni gapning lisoniy bosqichidagi umumiylilik bo'lmay, nutqiy bosqich hamda sintaksisidan quyi sath umumiyliklari bilan aloqador. Har qanday lisoniy birlik lisonning o'zi singari o'ta yuksak darajadagi umumiylilik bo'lishi kerak.

U nutqiy hosilalarni oddiy (mexanik) umumlashtirish usuli asosida emas, balki *lisoniy* bosqichda *lisoniy* birliklar orasidagi *paradigmatik* munosabatlari va bo'lak-butun aloqalari asosida ochilishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, LSQLarning tashkil etuvchilari, LSQLardan quyiroq *lisoniy* birliklar bo'lishi va ma'lum munosabatlarga kirishib, *bo'lak* sifatida yangi bir butunlik tarkibida birlashib, sintaktik lisoniy

¹ Грамматика русского языка. – М.: Изд-во АН СССРД970; Золотова Г.А. Очерки функционального синтаксиса русского языка. – М: Наука, 1973; Русская грамматика. Том 2. – М.: Наука, 1982; Тенгер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988;

birlikni berishi lozim. Demak, LSQning tarkibiy qismlari sintaktik sath birliklaridan quyiroq sath birliklari bo'lishi kerak. Biz 12- va 13-chizmada ajratgan qoliplar va ularning tarkibiy qismlari (chunonchi, 12-chizmada ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi kesim qismlari)ni shu nuqtayi nazardan baholasak, bu tarkibiy bo'laklar majmuasi gapni tashkil etadimi yoki bu bo'laklar gap tarkibida (ya'ni nutqiy hosila tarkibida) ajratilganmi, degan savolga javob berishimiz lozim. Bu savolga birinchi javob o'ta sodda: yuqorida ajratilgan ega, aniqlovchi va h.k. bo'laklar gap bo'laklari deb aytildi. Demak, ular gap tarkibidan ajratilgan; bu bo'laklarning majmuasi gapni bermaydi, balki bu bo'laklar majmua tarkibidan ajratilgan. Mana shuning uchun gapning yuza qolipi ham, uning ichki qurilish qolipi ham LSQ bo'la olmaydi – ular nutqiy hosilalarning mexanik, metafizik miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tishini o'zida mujassamlashtirmagan, ya'ni nodialektik umumlashmadir.

Ukam qora qalamni oldi nutqiy hosilasi bilan

1. _____

nutqiy hosilalar umumlashmasi orasida farq miqdoriyidir, nutqiy gap takrorlanmas, yakka alohidalikdir, 12-chizma esa:

Men sovuq suvni isitdim;

Ona yig'layotgan bolasini emizdi;

Quruvchilar eski uyni buzdilar;

Binokorlar yangi uyni qurishdi...

gaplarida ham takrorlanadi yoki ikki bo'lakni (chunonchi, _____) (ega) va _____ (aniqlovchi)ni chiqarib tashlasak, (masalan: *qalamni oldim, suvni isitdim* va h.k.) bu chizmaning nutqiy to'ldirilishi gapni beraveradi. Demak, 12-chizmada aks ettirilgan qolip lisoniy gap qolipi emas ekan. Chunki lisoniy gapdan uning tarkibiy qismlaridan biri chiqarilsa, u o'sha zahoti gap bo'lmay qoladi; biz yuqorida qo'ygan talablarga ko'ra, LSQning tarkibiy qismlari tabiatan nosintaktik lisoniy sath, sintaksidan quyiroq sath birliklari bo'lishi lozim va ularning o'zaro birikishi sintaktik *lisoniy* sath birligini berishi shart. Agar bunday qolipdan biror tarkibiy qism chiqarib tashlansa, butunlik buzilishi lozim.

Chunonchi,

B

A

C

butunligidan biror tomonni chiqarsak, yangi bir butunlik (bu holatda burchak) hosil bo'ladi. Xuddi shunday LSQdan biron-bir tarkibiy qism chiqarilsa, *sintaktik* birlik nosintaktik birlikka aylanmog'i (ya'ni o'z asliga, o'zi mansub bo'lgan quyi sathga qaytishi) lozim. Demak, LSQning mohiyati va ko'rinishi biz 12- va 13-chizmalarda bergandek, metafizik umumlashmalar sifatida bo'lmasligi kerak va tabiatan hamda zotan (shaklan va ontologik) tamoman boshqacha bo'lmg'i zarur. Ular dialektik tabiatga ega bo'lganliklari uchun, avvalo, umumisoniy qolip (LSQ) bilan xususiylik orasida faqat miqdoriy farq bo'lmay, avvalo, *sifat* farqlari bo'lmg'i lozim. Ikkinchidan, LSQ (butunlik) tarkibidan biror qismning tushurilishi butunlikning buzilishiga, yo'qolishiga olib kelishi kerak.

O'zbek tilshunosligida 80-yillardan boshlab "Formal-funksional tadqiqot tezislari" mualliflari tomonidan ilk bor ilgari surilgan¹ va M. Abuzalova, S. Nazarova, R. Sayfullayevlar tomonidan asoslanilgan lisoniy sintaktik qoliplar² xuddi ana shunday talabga javob beradi. S. Nazarova ko'rsatgan so'z birikmalarining LSQlari, M. Abuzalova bergen sodda gapning minimal qolipi [WP_m] va uning o'zbek tilidagi xil ko'rinishlari, R. Sayfullayeva ochgan [WP_m] V [WP_m] qolipi va uning uch xil ko'rinishi lisoniy, ya'ni mohiyatiy qoliplardir.

Masalan, gapning kichik qurilish qolipidagi har ikkala ramz ham juda yuqori darajadagi umumiyliliklardir, ularda cheksiz imkoniyatlarni mujassamlangan. Bu yerda [W] nutqda atash vazifasini bajaruvchi har qanday birlikning ramzi bo'lib, nutqda so'zga ham, so'z birikmasiga

¹ Нагматов Х., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухамедова Д.А., Нурмонов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков. (тезисы формально-функционального исследования).//Сов. тюрк. – 1984. – №5. – С. 3-10; Нагматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Халиков Р.Х., Махмудов Н.И., Нурмонов А., Сайдуллаева Р.Р. Способ синтаксической связи и актуальною вопросом тюркского синтаксиса// Сов. тюрк. – 1988. – №4. – С. 3-9.

² Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqealanishi: Filofanlari nomzodi...diss. Toshkent. 1994.; Nazarova S. Birikmalarida so'zlarining erkin bog'lanish omillari: Filofanlari nomzodi...diss.avtoref. – Toshkent. 1997. Sayfullayeva R.R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal-funksional taklifi. – Toshkent: "Fan", 1994; Sayfullayeva R., Abuzalova M. Gapping eng kichik qurilish qoliplari haqida/O'zbek til va adabiyoti. – 1991. – № 5. – B. 42-47.

ham, frazeologik birlikka ham, ajralmas sintaktik butunlikka ham teng bo'lishi, ulardan istalgan biri orqali ifodalanishi mumkin.

[P_m] esa kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlarining ramzidir. Bu qism ham xuddi shunday umumiylit belgisiga ega. Kesimlik kategoriyasini tashkil etuvchi grammatic ma'nolar (taslik/inkor, mayl/zamon, shaxs/son) yig'iq, yoyiq, analitik (tavsiyiy) shaklda voqelanishi mumkin.¹ Bu holat yuqoridagi har ikkala qismga cheksiz imkoniyatlар beradi.

Bundan tashqari, [VRga] LSQining tarkibiy qismlaridan birini bu qolipdan chiqarib ko'raylik. [VRga]dan istagan bir qismni ayirsak, gap yo'qoladi. Chunki [V] ayтиб o'tganimizdek, nominatsiya (atash) sathi birligi, [Rga] esa kesimlik kategoriyasi – morfologik sath birligidir. Ularning har biri alohidalikda nosintaktik sathlar birligi bo'lib, sintaktik sath birligi mana shu nosintaktik birlıklarning o'zaro birikishidan hosil bo'ladi. So'z birikmalari va gap LSQlari ham ana shunday tabiatga ega. Qoliplashtirishning 3-bosqichida hosil qilinadigan qolipler lisoniy, mohiyatiy qolipler ekanligi biz yuqorida eslatgan tilshunoslarning ishlariда yetarli darajada ochib berilgan.

Fandagi har bir nazariya amaliyatga tatbig'i bilan qimmatlidir. Shunday ekan, formal-funksional tadqiqotlarda aniqlangan va aniqlanayotgan LSQlar fan uchun qanday nazariy va amaliy qiymatga ega, degan savol tug'ilishi tabiiy. LSQlarni aniqlash, ajratishdan quyidagi nazariy va amaliy maqsadlar ko'zda tutiladi:

Nazariy maqsadlardan biri nutqiylar bilan qolishalardan (so'z birikmasi va gaplardan) fonetik, fonologik, leksik-semantic, morfologik, stilistik xususiyatlardan idrokiy usul bilan chetlashtirilgach, ularda faqat sintaksis uchun bevosita aloqador bo'lgan belgi-xususiyatlardan qoladi. Natijada LSQlar tilning boshqa sath xususiyatlardan tozalangan, sof sintaktik tabiatga ega bo'lgan birlik sifatida namoyon bo'ladi. Tilning sintaktik qurilishi LSQlar asosida o'rganilsa, u tilning boshqa sath birlıklaridan xoli bo'lgan haqiqiy sintaksis sifatida ko'zga tashlanadi. H.Ne'matov haqili ravishda ta'kidlaganidek, sintaksischi oldida tahlil etilayotgan gaplarda tilning boshqa sathlari va uslublarining fahm bizga beradigan

¹ Kesimlik kategoriyasi haqidagi bo'limda bu haqda batafsilroq to'xtalamiz; Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqida voqelanishi: Filol.fanlari nomzodi...diss. Toshkent, 1994.; Sayfullayeva R.R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal-funksional tajqini. – Toshkent: "Fan", 1994; Sayfullayeva R., Abuzalova M. Gapning eng kichik qurilish qoliplari haqida/O'zbek tili va adabiyoti. – 1991. – № 5. Nazarov S. Birikmalarda so'zlarning erkin bog'janish omillari: Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – Toshkent, 1997; Sayfullayeva R., Abuzalova M. Gapning eng kichik qurilish qoliplari haqida/O'zbek tili va adabiyoti. – 1991. – № 5.

tajallisini qunt bilan sintaksisidan chetlashtirish, sintaktik hodisalarini boshqa sathlar hodisalaridan ajratib, sof sintaktik mohiyatlarni o'zaro qiyoslash va faqat shu yo'l bilan sintaktik hodisalar xususida *hukmlar* yurgizish talab qilinadi. Sintaksis boshqa sathlar (ayniqsa, leksika va morfologiya) birliklari *tajallisidan* xoli bo'lgach, behad sodda, oddiy va hammaga oson tushunarli qoliplarning o'zaro munosabat chizmalarini shaklini oladi va bugungi murakkablik va tushunilmaslikdan qutuladi.¹

LSQlarni ajratish orqali, birinchidan, sintaktik sath birlıklari, ya'ni sintaksis boshqa sath birlıklari va xususiyatlari ta'siridan tozalanadi, ikkinchidan, LSQlar asosida tildagi sof sintaktik munosabat va aloqalarini o'rganish imkoniyati tug'iladi va tildagi sof sintaktik munosabatlar juda oddiy usulda ochib beriladi. O'mi kelganda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tilning har bir sathiga xos sof fonetik, sof fonologik, sof morfologik va sof sintaktik munosabatlar o'ta sodda va oddiyidir.

Biroq, bu munosabat va xususiyatlardan hech qachon sof holda uchramaydi, voqelikda bu munosabatlarning barchasi bирgalikda, uyg'unlikda berilgan. Har bir sath birlıklari, shuningdek, xususiyatlari idrokiy usul bilan boshqa sath ta'siridan (tajallilaridan) tozalanib, faqat shu sathga aloqador munosabat chizmalarini sifatida o'rganilsagina tilshunosni qiziqtirayotgan sathning tabiatini va birlıklarining mohiyati haqida to'g'ri xulosa chiqarish mumkin. Til sathlarini nazariy bosqichda bu xilda o'rganish til ta'limini samarali usullarda amalga oshirishga olib keladi. Shu bilan birga, tilni qoliplashtirish, ma'lumki, tillar orasidagi o'xshashlik, umumiylit va farqliliklarni to'g'ri aniqlash, bir tildan boshqa tilga avtomatik tarjima qilish, ma'lum bir usulda berilgan axborotni ayni zamonda o'nlab – yuzlab tillarda chiqara olish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

H.Ne'matov va R.Rasulov bunday nazariy maqsadlarni borliqda narsa va moddalar tarkibida faqat qorishma va aralashmalar sifatida uchraydig'an kimyoviy elementlarni alohida ajratib olish bilan taqqoslaydi.² Kimyo fani kimyoviy atomlarni ajratib olish yo'lida uzoq vaqt izlanish olib bordi. D.Mendeleyev davriy sistemasi qariyb 2000

¹ Ne'matov H. Tajalli tasavvuf bilish nazariyasi va tilshunoslikda sintaksisi: o'rganish mas'lalari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1993. – № 2. – B. 27-30.

² Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1995. – 127 b.

yillik tarixga ega bo'lgan ana shu izlanishlarning natijasi sifatida vujudga keldi.

Til sathlarini sof holda o'rganish kimyoviy elementlarni sof o'rganish harakatidek tasavvur qilib bo'lmas samaralar beradi. Sintaksis ixcham LSQlar majmuasi sifatida o'rganilsa, sintaksis nazariy jihatdan to'g'ri va puxta o'zlashtiriladi. Idrokiy usul bilan aniqlangan LSQlar sintaksisda qaysi masalalarni o'qitish zarur va foydali ekanligini aniqlab beradi. Shu asosda ona tili ta'limi qayta quriladi va uning samaradorligi ta'minlanadiki, masalaning bu tomoni LSQlarni ajratishning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Zeroki, nutqiy voqeliklardan ajratib olingan LSQlardan asosiy amaliy maqsad ularni qaytadan nutqda voqelanirish va shu asosda nutqiy hosilalarni baholashdir. LSQ nutqda yuzaga chiqishi, voqelanishi, tamomlanishi zarur. LSQning nutqda voqelanishi, LSQ asosida yangi nutqiy hosilalar chiqarish LSQning moddiy, nutqiy voqelanishi deyiladi.

Tajallii atamasining mohiyati, uning tasavvuf ta'limotidagi metodologik ahamiyati haqida H.Ne'matov o'zining "Tajallii tasavvuf bilish nazariyasi va tilshunoslikda sintaksisni o'rganish masalalari" degan maqolasida batafsil ma'lumot bergan.¹ Shuningdek, filolog talabalarga mo'ljallangan qo'llanmamizda ham bu masalaga maxsus to'xtalganmiz.² Shu sababli, takrordan o'zimizni soqit qilib, asosiy masalaga o'tamiz.

Zotiy (substansial) tabiatga ega bo'lgan LSQlar muayyan so'z birikmalari va gaplarda tajallilanadi, aks etadi, voqelanadi. Shuning uchun LSQlar ramzlar vositasida birikadi.

LSQlearning har biri tilimizda o'ziga xos shakl va mazmunga egadir. Shakl va mazmun istalgan LSQning tashqi moddiy tomonini va ichki mazmun, vazifa tomonini tashkil etadi. LSQ ma'lum bir shakl va ma'lum bir mazmunning nomutanosib (asimetrik) bog'lanishidan iborat. Qolipning na shakl, na mazmun tomonini so'zlovchi o'z ixtiyoricha o'zgartira oladi. Lekin har bir LSQda shakl va mazmuni ma'lum miqdorda o'zgartirishga imkoniyat mavjuddir. Lisoniy tizimda bunday o'zgarishlar darajasi va miqdori ancha katta aniqlikda ko'rsatilgan bo'ladi. Shuning uchun LSQning shakl va mazmun

jihatdan o'zgarish darajasi ham ixtiyoriy bo'lmay, lisoniy tizim tomonidan chegaralangan, belgilangan bo'ladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Lisoniy sintaktik qolip deganda nimani tushunasiz?
2. Gapning eng kichik minimal qolipini tavsiflab bering.
3. So'z birikmalari qoliplarining qanday turlarini bilasiz?
4. Qo'shma gap qoliplari, sizningcha, qo'shma gaplarning hamma turi uchun ham muvofiq keladimi?

10-mavzu. LSQNI ANIQLASH USULLARI

LSQlar fahmiy kuzatishlarni idrokiy umumlashtirish yo'llari orqali hosil qilinadi. Masalan, *Rahmonning kitobi* so'z birikmasining LSQini aniqlash uchun shu turdag'i boshqa so'z birikmalari nazardan o'tkaziladi. Ular xayoliy tarzda yoki yozib qo'yish orqali yig'iladi, to'planadi. Shu tarzda, *Gulnoraning ko'ylagi*, *Barnoning daftari* kabi yuzlab so'z birikmalarini bir-biriga taqqoslab, [(atoqli ot+qaratqich kelishigi)+(turduosh ot+III shaxs egalik qo'shimchasi) = qaratuvchi shaxs + unga tegishli narsa] qolipini ochgandek bo'lamiz. Lekin bu qolipni *mening kitobim*, *uning daftari*, *bizning uyimiz* kabi cheksiz so'z birikmalari bilan solishtirgach, 1-qolipdan atoqli ot belgisi va III shaxs egalik qo'shimchasi belgilari ahamiyatsiz sifatida chetlashtiriladi. Chunki atoqli otlar o'mida olmoshlar ham kela oladi, shuningdek, III shaxs egalik qo'shimchasi o'mida aniqlovchi (qaratuvchi)ning shaxsiga mos ravishda boshqa shaxs egalik qo'shimchalari ham kelishi mumkin.

Natijada quyidagi ko'rinishdagi 2-qolip hosil bo'ladi:

(ot || olmosh + qaratqich kelishigi) + (turduosh ot + egalik qo'shimchasi) = (narsa egasi + narsa).

Hosil qilingan 2-LSQni *mening qo'lim*, *kitobning varaq'i*, *stolning oyog'i*, *eshikning dastasi* kabi so'z birikmalari bilan solishtirsak, yangi bir hodisa namoyon bo'ladi. Keyin keltirilgan to'rtta so'z birikmasi "narsa egasi – narsa" (mahsulot egasi va mahsulot) munosabatlarini emas, balki "butun – bo'lak" munosabatlarini ifodalaydi. Ko'rindiki, yuqoridaq ikki xil munosabat bitta LSQda ifodalangan. Shu bosqichda tilshunos oldida bir muammo tug'iladiki, u ham bo'lsa, "narsa egasi –

¹ Ne'matov H. Tajallii tasavvuf bilish nazariyasi va tilshunoslikda sintaksisni o'rganish masalalari // O'zbek tili va adabiyoti – 1993. – № 2. – B. 27-30.

² Ne'matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O'zbek tili strukural sintaksini asoslari. – Toshkent: "Universitet", 1999.

narsa" va "butun – qism" munosabatlari LSQga bevosita aloqador yoki aloqador emasligini aniqlashdir. Masalaning muhim tomoni shundaki, agar bu xususiyat LSQga (biz tekshirayotgan sathga) bevosita aloqador bo'lsa, qolipda aks ettirilishi zarur (Bu haqida ushbu bobning 2-bandida to'xtalgan edik).

Buni aniqlash uchun bir necha bir-biriga o'xshash so'z birikmlari taqqoslanadi:

2-jadval		
	So'z birikmasi	Ma'noviy munosabatlari
1	Salimning kitobi Mening kitobim	narsa egasi – narsa
2	Stolning oyog'i	butun – bo'lak
3	Mashinaning haydovchisi	narsa – aloqador shaxs
4	Otning erkagi Qizilning qizili	tur – jins
5	Uyning tozaligi	belgi tashuvchi – belgi
6	Bolaning uyqusi	subyekt – harakat
7	Bolaning tug'ilishi	holat
8	Karimning kimligi	belgi tashuvchi – uning mavqeyi
9	To'rtning yarmi	butun – bo'lak
10	Yashashning zavqi	holat – uning natijasi
11	Urushning natijasi	harakat – uning natijasi
	E'tiborsizlik ogibati	sabab – natija

Bu jadvalda 11 turdag'i so'z birikmlari keltirilgan. Vaholanki, tadqiqotchilarimiz (jumladan, A.K.Borovkov, T.Inoyatov, A.Choriyev va b.) bunday turlarni qirqdan oshirgan.¹ Jadvalda keltirilgan 11 turdag'i so'z birikmalarining har biriga nutqimizda cheksiz misollar uchraydi, shu sababdan, ularning 11 tasi ham cheksiz so'z birikmlari namunasi sifatida qaraladi.

Tekshirishning 1-bosqichida 11 ta tur dastlab tarkib jihatdan ko'rib chiqildi va keltirilgan so'z birikmlarida tobe bo'lak, ya'ni qaratqich kelishikli aniqlovchi vazifasida ot, sifat, olmosh, son, harakat nomi kabi rang-barang so'z turkumlariga mansub so'z kela olishi aniqlanadi. Ko'rindaniki, tahlil etilayotgan so'z birikmalarining birinchi qismi ism

turkumiga mansub istalgan so'z bo'lishi mumkin. Buni shartli ravishda [I] ramzi, qaratqich kelishigi shaklini [q.k.] bilan belgilab, bu so'z birikmasi birinchi qismini [$I^{q,q}$] sifatida belgilab olamiz.

1-jadvalda keltirilgan so'z birikmalarining ikkinchi qismi ham ismlarga mansub so'z bo'la oladi, uni [I] bilan, egalik qo'shimchalarini esa [e.q.] bilan belgilab, bu so'z birikmasi tarkibini [$I^{q,q} I^{e,q} = \dots$], ya'ni "ism turkumiga mansub qaratqich kelishigi shaklidagi bir so'zning tobe sifatida ism turkurniga mansub egalik qo'shimchali boshqa bir so'zga hokim sifatida bog'lanishidan tarkib topgan so'z birikmasi" kabi ko'rsatishimiz mumkin.

Endi so'z birikmasining tarkibiy qismlari orasidagi munosabatlari tahliliga o'tamiz.

[Salim] va [kitob] orasida, qolaversa, [Salim] va [kitob] tushunchalari orasida ongimizda va borliqda qanday tabiiy bog'lanish bor? Butun – bo'lak munosabatlari bo'lishi mumkin emas, atalganlik, mo'ljalanganlik munosabatlari bo'lishi mumkin emas, zeroki, bunday munosabatlari [(Salimga kitob), (Salim uchun kitob)] turidagi so'z birikmlari bilan ifodalanadi. Bu ikki so'z tushunchasi va narsa uchun tur – jins, sabab – natija, subyekt – predikat va h.k. aloqalar ham xos emas. Bu ikki so'z (tushuncha va predmet) orasidagi tabiiy, tilimiz bilan mutlaqo aloqador bo'limgan munosabatlari "narsa egasi – narsa" munosabatidir. Demak, (Salimning kitobi) so'z birikmasida voqelanayotgan "narsa egasi – narsa" munosabatlari LSQga aloqador bo'lmay, so'zlar (tushunchalar, predmetlar) orasidagi 66 tabiiy (ijtimoiy) aloqalarning in'ikosidir. 2-, 3-, 4-, 11-turlar sifatida sanab o'tilgan so'z birikmalarining tarkibiy qismlari sifatida kelgan so'zlar, ular anglatgan tushunchalar, predmetlar bilan ma'noviy aloqalar ham LSQ bilan mutlaqo bog'liq emas. Bunday so'z birikmasi ma'noviy rang-baranglik so'z birikmasi tarkibidagi so'zlararo (tushunchalararo, predmetlararo) munosabatlarning aksidir, qolipning o'zi bu so'z birikmalariga deyarli hech qanday yangi ma'no kiritmaydi, lekin har bir tarkibiy qismga aniq sintaktik mavqe berib, ularni tobe – hokimlik lisoniy munosabatlari bilan bog'laydi. Tilshunosligimizda 1-jadvalda keltirilgan so'z birikmlari tarkiblari aro munosabatlari qaratqichli aniqlovchi (yoki qaratuvchi, qaratqich) va qaralmish deb baholanadi.

Endi biz [$I^{q,q} I^{e,q} = \dots$] qolipining ikkinchi qismini ham to'ldira olamiz [$I^{q,q} I^{e,q} = \text{qaratuvchi} - \text{qaralmish}$]. Demak, nutqiy namunalari bir

¹ Боровков А.К. Вопросы синтаксиса тюркских языков. – М: Восток, 1961.; Инютов Т. Основной и вспомогательный падеж в современном узбекском литературном языке. Автореф. дис... кандидата наук. – Ташкент, 1973.; Чорнов А. Синтаксико-семантические признаки родительного падежа в узбекском и английском языках. – Ташкент: "Фан", 1990. – С. 92.

necha yuz ming bo'lgan va 1-jadvalda 11 turga birlashtirilgan so'z birikmalarining LSQ-i o'ta yuksak darajada mavhum va umumiyyidir. LSQ shunday bo'lishi ham kerak, chunki lisonning o'zi, demak, uning har bir birligi ham mavhum va umumiyyidir.¹ LSQ shakliy tomonining mavhumligi nisbiy bo'lib, umumiyligi mutlaqdir. Zeroki, "mavhumlik" tushunchasining o'zi oddiy mantiqda va dialetik mantiqda tamoman boshqacha tushuniladi.² Oddiy mantiqda bevosita kuzatishda berilmagan, moddiyigidan ajratib, umumiylashtirilgan har bir belgi-xususiyat yoki bu belgi-xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi zot mavhum sanaladi.³ Dialektik mantiqda tamoman aksincha. Munosabat va aloqalaridan ajratilgan zot mavhum sanaladi va bunda bu zotni bevosita ko'ra olish (seza olish) mumkinmi – mumkin emasmi, hech qanday ahamiyatga ega emas. Dialektik mantiq sodda va keng qamrovlidir. Uni oddiygina $[I^{q,q} I^{e,q}]$ = qaratuvchi – qaralmish munosabatlari] sifatida berish mumkin. Mana shu $[I^{q,q} I^{e,q}]$ = qaratuvchi – qaralmish] lisoniy sintaktik qolipini LSQning shakliy va mazmuniy tomonlari tahlili uchun asos qilib olamiz, qolgan LSQlarni unga qiyosan tahlil etish va ochish mumkin.

Sodda gapning minimal qolipi $[WP_m]$ ham yuqoridagidek usullar orqali aniqlangan. Tadqiqotchi M. Abuzalova o'zining tadqiqotida dastlab nutqiy hosilalarning umumiy chizmasi (qolipi) bilan lisoniy sintaktik qoliplarning farqini oshib beradi. Keyin esa bir necha gaplarni va ularning nutqiy qolipini qiyoslaydi. Bu jadvalni⁴ aynan keltiramiz va so'ngra tahlilimizni davom ettiramiz.

3-jadval

Gaplar	Qoliplar
1. Salim (u) kitobni o'qidi	$[E^{o-z,b} T_s^{ot} K^{f,z,s} Kq]$
2. Salim (u) xudodan qo'rjadi	$[E^{o-z,b} T_i^{o,ch} K^{f,as} Kq]$
3. Salim (u) maktabga boradi	$[E^{o-z,b} T_o^{o,j} K^{f,as} Kq]$
4. Salim (u) mактабдан qaytadi	$[E^{o-z,b} H_o^{o,ch} H_o^{o,j} K^{f,as} Kq]$
5. Salim (u) qizardi	$[E^{o-z,b} K^{f,as} Kq]$

¹ Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: "O'qituvchi", 1993; Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem jeksiologiyasi asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1995.

² Tulenov. Falsafa. – Toshkent: "O'qituvchi", 1994; Ivanov C.H. Kurs gurецкой грамматики. 4-1. – Л., 1975; Ivanov C.H. Родословное древо порок Абубекри хана. Грамматический очерк. – Ташкент: "Фан", 1962.

³ Xayrullayev M., Naqberdiyev M. Mantiq. – Toshkent: "O'qituvchi", 1995.

⁴ Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi: Filofanlari nomzodi... diss. Toshkent, 1994.

6. Moskvaga boriladi	$[H_o^{o,j} K^{f,m,s} Kq]$
7. Bu kitobni o'qisa bo'ladi	$[A^z T_s^{ot} K^{f,z,s} Kq]$
8. Otam tajribali o'qituvchi	$[E^{o,b} A^o K Kq]$
9. Bu gul juda chiroyli edi	$[A^z E^{o,b} K^* Kq]$ ²

Bu jadvaldag'i qoliplar nutqiy hosilalarning mavhum, metafizik chizmasidir, ular til birliklari emas. Til birligi sifatida gap qolipi qanday bo'ladi, degan masala yoki boshqacha aytganda, gapning lisoniy qolipini belgilash masalasi asosiy muammodir. Buni M. Abuzalova cheksiz sodda gaplarda, jumladan, ularning nutqiy hosilalarining umumiyy ko'rinishi bo'lgan nutqiy qoliplarda ham takrorlanib turishi shart bo'lgan umumiylikni aniqlash orqali hal qiladi.

U 9 ta gapning nutqiy qolipida takrorlangan va har qaysi gap uchun zaruriy bo'lgan qismni aniqlaydi. Bunday qism $[P_m]$, ya'ni kesimlik shakkllari (aniqrog'i, kesimlik kategoriyasining ifodalovchilar, gap kesimini shakllantiruvchi vositalar) ekanligi ayon bo'ladi va tahlil shu tarzda davom ettiriladi. Chunki lisoniy gap faqat o'sha qismning o'zidangina iborat bo'lishi mumkin emas, sababi $[P_m]$ orqali hech qanday hukm ifodalanmaydi. Demak, hukm ifodalanishi uchun gapni shakllantirish (qurish) uchun yana qandaydir zaruriy birlik bo'lishi kerak. Bu birlik 9 ta gapning kesimi vazifasida kelgan so'zlarning lug'aviy ma'nolari bo'lib, ular "lug'aviy ma'no ifodalash qismi" deb ataladi va [bu qism $[W]$ bilan belgilanadi].¹

Lug'aviy ma'no ifodalovchi qism mohiyatan so'zga teng ekanligi va bu so'z o'z semantik va sintaktik valentligi asosida kengayishi hisobiga nutqda o'z kengaytiruvchilarni ergashtirib keladi. Shu tarzda, $[W]$ so'z birikmasiga teng bo'lishi mumkin. So'z ham, so'z birikmasi ham atash sathida (nominatsiya sathida) bir xil vazifa – ya'ni nominativ vazifani bajarishini nazarda tutib, bu qism ba'zan $[A]$ (atov birligi) deb ham beriladi.

Shu sababli, o'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi aniqlanib, u $[WP_m]$, ya'ni $[AbK]$ sifatida belgilanadi.

Bu o'rinda hozirgi boshqa tadqiqotlarda (jumladan, M. Abuzalova, R. Sayfullayeva va boshqalarning ishlarida) qayd etib o'tilmayotgan,

¹ Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi: Filofanlari nomzodi... diss. Toshkent, 1994.

lekin fanimiz uchun katta ahamiyatga molik bo'lgan masala ustida to'xtalib o'tish lozim. Bu ham bo'lsa, gap ta'rifidir.

Formal-funksional tahlil namoyandalari tomonidan gapga berilgan yuqoridaq ta'rif va uning mohiyati an'anaviy sintaksisimizda gapga berilgan ta'rifdan nima bilan farqlanadi?

An'anaviy sintaksisidagi gap ta'rifi mantiqiy omilga tayanadi.¹ Zeroki, [subyekt – predikat] munosabati mohiyatan mantiqiy munosabatlardir. Mantiqiy subyekt – predikat munosabatlarini lingvistik omillar – ega-kesim bilan almashtirish hech qanday natija bermaydi, chunki bu yerda faqat nomlar, ifodalovchilar o'zgargan, xolos. Mohiyat esa o'sha mantiqiy, nolingvistikdir. Qiyoslang:

Mantiqa:

S (subyekt) – Fikr manbasi, obyekti, manba. R (predikat) – subyekt haqidagi belgi, xususiyat, harakatning tasdig'i yoki inkori. **Hukm** – subyekt-predikatning o'zarobog'lanishi (ya'ni predikatsiya) mahsuli.

An'anaviy grammatikada:

(Y.Grimm, G.Paul, F.Fortunatov, A.Shaxmatov, A.Peshkovskiy, V.Vinogradov, S. Barxudarov, A.G'ulomov)

Ega – fikrning manbasi. **Kesim** – ega haqidagi biror xabar yoki belgi-xususiyatni tasdiq yoki inkor etuychi gap bo'lagi. **Gap** – nisbiy tugallangan fikrni ifodalovchi, intonatsion tugallikka ega, grammatic shakllangan nutq parchasi.

Formal-funksional tahlilda:

Gap – kesimlik ko'rsatkichlari va ma'nolari ($[P_m]$) bilan shakllantirilan atov birligi va unga aloqador bo'lak, qism.

Kesim – $[P_m]$ ni o'zida mujassamlashtiruvchi bo'lak, gapning markazi.

Ega – kesimning morfologik shaklidagi shaxs/son ma'nosini muayyanlashtiruvchi gap bo'lagi.

An'anaviy sintaksisidagi gap ta'rifi nutqiy birlikka berilgan ta'rifdir. U ta'rifda lison – nutq bo'linishi (farqlanishi) asoslanilmagan. Shuningdek, bu ta'rifa til birliklarining ierarxik (pog'onaviy) aloqalari, yuqori sath birliklarining undan quyi bosqich birliklaridan hosil bo'lishi o'z aksini topmagan.

Bu ta'rifda gap dialektik butunlik sifatida ta'riflanmagan.

Bu ta'rif voqelangan gap asosida tuzilgan va gapning voqelanishdan oldingi holati va mohiyatini aks ettirmaydi.

Endi formal-funksional tahlil namoyandalari tomonidan gapga berilgan ta'rifga qaytamiz. Uni eslatib o'tamiz: Gap – til bosqichida atov birliklarining kesimlik kategoriysi ko'rsatkichlari bilan shakllangan ko'rinishidir.

1. Bu ta'rif sof lingvistik bo'lib, sof lingvistik tushuncha va birliklarga tayanadi. Bu ta'rifning hosilasi va nutqiy kengayishi gap bo'laklarini beradi, ya'ni gap bo'laklari gap hosilasi asosida emas, balki gap bo'laklari gap LSQining hosilasida aniqlanadi.

2. Ta'rif dialektik tabiatga ega bo'lib, unda mohiyatan nosintaktik birliklarning o'zaro birikib, ulardan yuqoriroq bo'lgan sath – sintaktik sath birligiga birikishi o'z aksini topgan.

3. Ta'rifda gap LSQi nutqiy vazifasi chegaralanmagan.

4. Bu ta'rif gap LSQini faqat imkoniyat sifatida ta'riflaydi.

Bundan biz xulosa chiqara olamizki, "Ukam qora qalamni oldi" gapida biz:

1. _____

qolipini ham,

2. ot + sifat + ot + o'timli fe'l

qolipini ham,

3. [WP_m] lisoniy sintaktik qolipini ham ko'ra olamiz. 12- va 13-chizmalar, aytib o'tganimizdek, nutqiy hosilalardan olingan umumlashmalardir. Ular bu nutqiy hosilalarning yuzaki chizmalaridir. 12-13-chizmalar nutqiy hosilalardan mexanik umumlashtirish asosida hosil qilinganligi sababli ular bu hosilalarning mohiyatini belgilay olmaydi. Chunki *Ukam qora qalamni oldi* gapida 12- va 13-chizmalar voqelangan (tajallilangan) emas, balki aksincha, bu chizmalar o'sha hosila (o'sha hosilalar) asosida hosil qilingan.

Shu asosda, biz bu chizmalarni hech qachon lisoniy birlik deb atay olmaymiz. An'anaviy sintaksisimizda, transformatsion sintaksisda, Xomskiyning yaratuvchan (vujudga keltiruvchi) grammatikasida

¹ Bu haqda garang: Turmuyozov N. Til unsurlarining mikrosintagmatik xususiyatlari xususida// O'zbek tili va adabiyoti. 1998. № 5. – B. 26-29.

(порождающая грамматика)¹, бевосита ташкил этувчилар grammatisida² ажратиладиган барча моделлар, qoliplar, transformatsion strukturalar va qurilmalar mana shunday yuza qurilish yoki ichki qoliplardir; ular sintaktik hosilalar – so'z birikmalarini va gap hosil qilish uchun xizmat qila olmaydi, aksincha, ular so'z birikmalarini va gaplar asosida hosil qilingandir.

An'anaviy sintaksisimizdagi Yevropa tilshunosligidan kirib kelgan gapning eng kichik qurilish qolipi

[S – R]

yoki uning o'zbekcha ko'rinishi

[ega – kesim]

qolipi ham yuza (yoki ichki) bosqich qolipidir. Buni isbotlovchi eng asosiy dalil shuki, "ega" va "kesim"larning o'zi gap mahsulidir. "ega" va "kesim" tushunchalari gap ichida hosil bo'ladi; gapning hosilasi bilan biz gapning mohiyatini aniqlay olmaymiz. Gapning mohiyati, ya'ni mohiyati qolipi shunday bo'lishi lozimki, u gapning o'zini va jumladan, "ega" va "kesim"ni bersin, ularda zot mohiyat sifatida aks etsin, tajallilansin. Bunday mohiyat [WP_m]da mujassamlangandir. U M.Abuzalova ko'rsatganidek, grammatic Shakllangan istagan turdag'i gapda – u bir so'zdan iboratmi yoki yigirmata so'zdan iboratmi – birdek voqelanadi. Shu sababli formal-funksional tahlildagi [WP_m] LSQ Yevropa sintaksischilarini ajratadigan modellardan tamoman farq qiladi. Zeroki, Yevropa sintaksischilarini qoliplari yuza (yoki ichki) qoliplardir va xususiyliklarning fahmiy usul bilan hosil qilingan mexanistik, metafizik umumlashmasi, mavhum umumiyligidir. [WP_m] esa dialektik usul bilan hosil qilingan muayyan umumiylilik bo'lib, u grammatic Shakllangan gap sifatida yuzaga chiqqan barcha nutqiy hosilalarda, xususiyliklarda bir xilda voqelanadi va ularni zot yuz minglab ko'zgulardagi rang-barang tajallilarni birlashtirganidek o'zida birlashtiradi va ularning dialektik muayyan umumiyligi hisoblanadi.³

O'zbek formal-funksional sintaktik tahlil yo'naliishida ajratilgan gapning [WP_m] singari LSQiga ayrim jihatlari bilan qisman

¹ Хомский Н. Логические основы лингвистической теории // Новое в лингвистике. Вып. II. М.: Прогресс, 1965. – С. 465-575; Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса. – М.: МГУ, 1972; Хомский Н. Синтаксические структуры // Новое в лингвистике. – М.: Прогресс, 1962.

² Кодулов В.Н. Общая грамматика. – М.: Высш. шк., 1974.

48

T.P.Lomtyev sintaktik nazariyasiga¹ tayangan holda N.Y. Shvedova tomonidan ajratilgan AG – 70 va AG – 82 da², Shvedova grammatikasi nomini olgan grammatik (sintaktik) talqin yo'naliishlarida (N.D.Arutyunova, A.B.Bondarko, V.V.Lopatin, E.A.Brizgunova, K.V.Gabugan, I.I.Kovtunova, qisman V.A.Beloshapkova va boshqalarning ishlarida) gapning qurilish chizmalari (структурный схемы предложения) ancha yaqindir. Lekin gapning qurilish chizmalari [WP_m]day umumiylilik va keng qamrovlilikka ega emas. Ular juda maydalashtirib yuborilganligi uchun AG – 82 yuzga yaqin gapning qurilish chizmalarini ajratadi va tavsiflaydi. Gapning qurilish chizmalarining [WP_m]ga yaqinligi jihat shundaki, gapning qurilish chizmalarini lisoniy sath birlıkları, sintaktik birlıklar sıfatıda ajratiladi va mohiyat sıfatıda muayyan xususiyliklarda voqelanadi. Bundan tashqari, gapning qurilish chizmalariga lisoniy birlik sıfatıda qaraladi va mazmun tomonlarini farqlashga harakat qilinadiki, bu lisoniy birlikni ajratishda va tavsiflashda juda muhimdir.³

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. LSQ qanday hosil qilinadi?
2. Tadqiqotchi M.Abuzalova o'zining tadqiqotida nutqiy hosilalarning umumiylilik chizmasi (qolipi) bilan lisoniy sintaktik qoliplarning farqini qanday ochib bergen?
3. Mantiqiy subyekt – predikat munosabatini sharhlab bering.
4. LSQ ning shakliy va mazmuniy tomonini izohlab bering.

¹ Грамматика современного русского литературного языка. Под ред. Н.Ю.Шведовой. – М.: Наука, 1970.

² Русская грамматика. Под ред. Н.Ю.Шведовой. – М.: «Наука», 1982. II том. – 7-9 с. 1982.

³ Metafizik (formal logika usullari: bilan hosil qilingan yuzak) mavhum umumiylilik bilan dialektik logika usullari bilan ochiladigan dialektik (muayyan) umumiylilik orasidagi farq substansial (zotiy) yondashishni boshqa xil yondashishlardan farq qiluvchi eng muhim asos ekaniliga haqidagi birinchi bobda gapirib o'tgan edi. Dialektik va nodialektik umumiyliliklar orasidagi farq haqidagi o'zbek faylasifi B.R.Karimovning "Лингвистика объективного и субъективного в методе восхождения от абстрактного к конкретному" (Т., "Фан", 1989) tadqiqotiga murojaat qilish mumkin.

FAN YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

- Distributiv tahlil metodi.
- Ferdinand de Sossyur lingvistik qarashlarining muhim tamoyillari.
- Lingvistik strukturalizmning asosiy belgilari.
- Praga lingvistik to'garagining asosiy xizmatlari. Funksional lingvistika.
 - Strukturalizmning glossematika maktabi vakillari.
 - Deskriptiv lingvistika.
 - Ierarxik munosabat.
 - Sodda gapning minimal qolipi.
 - Lisoniy tizimda oraliq uchinchi.
 - Privativ (noto'liq, xususiy) oppozitsiya.
 - Lisoniy tizimning pog'onaviy (ierarxik) qurilishi.
 - Qo'shma gap qoliplari.
 - Jo'nalish kelishigi formasi ierarxiysi.
 - Sinonimik va graduonimik munosabatlari.
 - Morfologik hodisalarda darajalanish.
 - Jo'nalish kelishigining nutqiy ma'nolari.
 - Sintaktik sath birliklaridagi sinonimiya masalasi.
 - Formal-funksional yo'nalishning asosiy tahlil usullari.
 - Formal-funksional yo'nalish sohasidagi ilk tadqiqotlar.
 - Formal-funksional yo'nalishda lison va uning tabiatni.
 - Formal-funksional yo'nalishning mohiyati.
 - Formal-funksional yo'nalishning tadqiq usullari.
 - Sistemaviy tilshunoslikning fundamental masalasi.
 - Lisoniy birliklarda moddiy tomon.
 - Nutq faoliyatining turli tomonlari.
 - Lison va nutq farqlanishi.
 - Lisoniy birlik va lisoniy ma'no.
 - Nutqiy va nutqiy birlik.
 - Lisoniy birliklarning formal-funksional tadqiq usuli.
 - Til birliklari talqiniga zotiy yondashuv.
 - Lingvistik qolipning ijtimoiy qiymati.

FAN YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

- 1. Tilshunoslikda sistem-struktur tadqiqotlarni boshlab bergan olim kim?**

- A) S.N.Ivanov*
- B) F. de Sossyur
- V) N.S.Trubetskoy
- G) L.Yelmslev

- 2. Lisoniy birlik (zot)ning qaysi qirrasi – tomonining nutqda konkret voqelanishi nima bilan belgilanadi?**

- A) sabab va oqibat kategoriyalarining til tizimidagi roli bilan
- B) lisoniy birlikdarning sintagmatik munosabatlari bilan*
- V) lisoniy birlikning umumiy ma'nosini uning sifatlari va munosabatlari jami bilan
- G) zot va tajallli (substansiya va refleksiya) tushunchalari bilan

- 3. Formal-funksional tahlil usulining asosiy tamoyillari qaysi qatorda noto'g'ri ifodalangan?**

- A) lisoniy birlikning zotiy (substansial) tabiatni
- B) har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigmaga mansubligi
- V) lisoniy tizimning barcha bosqichlarida oraliq uchinching mutlaqligi
- G) lisoniy tizimning ierarxik (pog'onaviy) qurilishi; bu ierarxiyada har bir bo'g'inning nisbiy mustaqilligi va har bir bo'g'in uzvlarinining gipo-giperonimik munosabatlari bilan yopiq mikrosistema sifatida o'zaro bog'lanmasligi

- 4. Formal-funksional tahlil usulining asosini, negizini nechta tamoyil tashkil etadi?**

- A) 4
- B) 6
- V) 2
- G) 5*

- 5. Lisoniy qolip (model) tarkibiy qismi quyidagilarning qaysi biridan tashkil topgan?**

- A) lisoniy qolipning shakli va mazmuni*
- B) lisoniy qolipning ichki va tashqi mazmun plani
- V) lisoniy qolipning zotiy munosabati

G) javoblarning barchasida lisoniy qoliplarning tashkil qismlari berilgan

6. *Havo ochildi, biz yo'lga chiqdik. Ushbu gapning sintaktik qolipini toping?*

- A) WP_m, P_m =...
- B) WP_m, WP_m =...
- V) WP_m, WP_m =...
- G) WP_m, P_m =...

7. O'zbek tilshunosligidagi formal-funksional yo'nalishda qaysi qolip paradigmatisasi yangi bosqichda o'rGANILMOQDA?

- A) lisoniy qoliplar
- B) lisoniy birlik
- V) grammatik shakllar
- G) sintaktik qoliplar*

8. Lisoniy birlik ham bir necha paradigmalarga kiradi. Har bir paradigmaga nechta qirrasi kiradi?

- A) barcha ma'nolari
- B) asosiy ma'nolari
- V) bir ma'no qirrasi*
- G) lisoniy birlikning barcha ma'no qirralari faqat bir paradigmada qoladi

9. Jarangsizlar – jaranglilar – sonorlar ziddiyati qatoridan oraliq uchinchini toping.

- A) sonorlar
- B) jaranglilar*
- V) jarangsizlar
- G) jarangsizlar va sonorlar

10. Morfologik shakllardan qay biri oraliq uchinchida turadi?

- A) egalik shakli
 - B) kesimlik shakli
 - V) birlik son*
 - G) javoblarning barchasi to'g'ri
11. Sodda va qo'shma gaplar ziddiyatida oraliq uchinchi quyidagilardan qay biri?
- A) ajratilgan izoh bo'lakli gaplar
 - B) so'z gaplar
 - V) atov gaplar

G) uyushgan gaplar*

12. So'z birikmasi va leksemalar ziddiyatida oraliq uchinchi holatidagi birlikni aniqlang.

- A) frazemalar*
- B) parafrazalar
- V) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi
- G) so'z qo'shilmasi

13. Kim graduonimik qatorlarning fonetik, fonologik, leksik, morfologik, sintaktik va stilistik sathlarga ham xosligini ko'rsatib, lisoniy tizimda graduonimik qurilish umumiyligini qonuniyatlardan biri ekanligini ko'rsatib berdi?

- A) H.Ne'matov
- B) O.Bozorov*
- V) B.Mengliyev
- G) N.S.Trubetskoy

14. Ierarxik munosabat til birliklarining qanday holatida muhim ahamiyat kasb etadi?

- A) tema va rema munosabatida
- B) til birligi va leksik birlik munosabatida
- V) sathma-sath qatlamlanishida
- G) A, B va V

15. "O'zbek tilining lug'aviy tizimi mustaqil leksemalarga, yordamchi leksemalarga va undov leksemalarga bo'linadi." O'zbek tili lug'aviy tizimining ierarxik (pog'onali) tuzilishini shunday tasvirlagan tilshunos olim kim?

- A) N.S.Trubetskoy
- B) O.Bozorov
- V) A.Nurmonov
- G) H.Ne'matov*

16. O'zbek tilida o'simlik nomlari leksemalari tizimi (qisqacha O'NLT) ni maxsus tadqiq etib, bu tizimning pog'onaviy (ierarxik) qurilishiga ega ekanligi, u 7-8 bosqichli tizimni tashkil etishi, "O'zbek tili izohli lug'ati"dan o'rin olgan 400 dan ortiq o'simlik nomlari leksemalarining har biri ana shu 7-8 bosqichning ma'lum bo'g'inidan joy olishi haqidagi xulosaga kelgan taddiqotchini aniqlang.

- A) G.Ne'matova*

- B) R.Sayfullayeva
V) H.Ne'matov
G) A.Abdizuhurov

17. Ierarxik munosabatda giperonim vazifasini..., giponim vazifasini ... o'taydi.

- A) markaziy leksema, qurshov leksemalari
B) denotativ, konnotativ ma'nolar
V) qurshov leksemalari, markaziy leksema
G) to'g'ri javob berilmagan

18. Lug'aviy ma'no guruuhlari necha qismdan iborat bo'ladi?

- A) to'rt
B) uch
V) ikki
G) cheksiz

19. Har bir bo'g'indagi gipo-giperonimik munosabatlardan iborat bo'lgan ierarxik qurilmalarni I.Madrahimov qaysi tizimda o'rsgangan?

- A) grammatic (morphologik) kategoriyalar asosida
B) so'z turkumlari misolida
V) fonologik tizimda
G) sodda gap qoliqlarida

20. Jo'nalish kelishigi formasi ierarxiyasi bo'g'inlarining V bo'g'in: qurshovi – a) jo'nalish kelishigi; b) chiqish kelishigi; v) o'rin kelishigidan iborat bo'lsa, markazi qanday xususiyatlardan tashkil topgan?

- A) makon-zamon shakllari
B) shakl va mazmun
V) sabab va mohiyat
G) umumiylilik va xususiylik

21. M.R.Saidova tomonidan ajratilgan va tafsiflangan, bir sostavli sodda gapning modeli qaysi qatorda berilgan?

- A) [WP_m]
B) [_mVF]
V) [IWP_m]
G) [VF^{in poss}]*

22. Javoblarning qay birida o'zbek tili gipologik leksikasini tadqiq etgan shaxs nomi berilgan?

- A) I.Madrahimov
B) M.R.Saidova
V) R.Safarova*
G) O.Bozorov

23. Tilning asosiy struktura birliklari qaysilar?

- A) fonema, leksema
B) leksema, morfema
V) morfema, konstruksiya

G) fonema, leksema, morfema va konstruksiya*

24. 1939-yilda e'lon qilgan maqolalarida struktura atamasini ishlatgan olim kim?

- A) X.I.Pos
B) F.de Sossyur
V) F.Fortunatov
G) V.Brendal

25. Strukturalizmning nechta asosiy tarmog'i mavjud?

- A) olti
B) ikki
V) to'rt
G) uch'

26. Strukturalizmning Praga mktabi vakillari qatorini aniqlang?

- A) V.Matezius, B.Trinka
B) B.Gavranik, N.S.Trubetskoy
V) R.O.Yakobson, S.Karsyevskiy
G) A, B va S*

27. "Umumiy grammatika prinsiplari" (1928) asarining muallifi kim?

- A) F.de Sossyur
B) X.Uldall
V) L.Yelmslev*
G) V.Brendal

28. Glossematiklar tilni o'rganishdagi va F.de Sossyur tomonidan ilgari surilgan sinxronik va diaxronik metod o'rniga qanday metodlarni tavsiya etadi?

- A) diaxronik
B) axronik

- V) panxronik
G) B va V*

29. Amaliy ehtiyoj nuqtayi nazaridan strukturalizmning qaysi yo'nalishi Amerika hindularining tilini o'rGANISH natijasida paydo bo'lgan?

- A) funksional lingvistika
B) glossematika maktabi
V) Daniya strukturalizmi
G) deskriptiv lingvistika*

30. Praga strukturalistlarining qarashlari quyidagi asarlarning qay birida e'lon qilib borilgan?

- A) "Praga lingvistik to'garagining asarlari"
B) "Til va nutq"
V) "Lingvistikada struktural analiz metodi"
G) "Lingvistik nazariyaning asoslari"

31. "Hind – Yevropa tillaridagi dastlabgi unlilar sistemasining tadqiqi" nomli asar muallifi kim?

- A) Vilgelm fon Gumboldt
B) Frans Boas
V) F.de Sossyur*
G) Frans Bopp

32. Kopengagen strukturalizmi ... deb ham yuritiladi?

- A) funksional lingvistika
B) glossematika maktabi*
V) Daniya strukturalizmi
G) deskriptiv lingvistika

33. XX asrning 20-yillari oxirida (1926) yuzaga kelgan tilshunoslik oqimi bu ...?

- A) kognitiv lingvistika
B) pragmatika
V) struktural lingvistika*
G) an'anaviy tilshunoslik

34. Praga lingvistik to'garagining 1929-yilda e'lon qilingan tezislarida funksional lingvistika maktabining asosiy tamoyillari ko'rsatib berilgan. Quyidagi tamoyillardan qay biri tezisda nazarida tutilmagan?

A) Lingvistik tahlilga funksional nuqtayi nazaridan yondashganda, til biror maqsad uchun xizmat qiladigan ifoda vositalari sistemasi bo'la olmaydi.

B) Tilning mohiyatini bilishning eng yaxshi usuli hozirgi zamon faktlarini sinxron tahlil qilishdir. Lekin bunda tilni diaxronik tahlil qilish ham inkor etilmaydi. Tilning sistema va funksiya ekanligini hisobga olishda diaxroniyani ham umutmaslik kerak.

V) Tilning tovush tomoniga alohida ahamiyat beradi. Fonema deb tilning ayrim shaxsda tug'iladigan akustik va artikulyatsion obrazni tushuniladi. Fonologik hodisalar tahlil qilinganda, harakat obrazini emas, akustik obrazni birinchi o'ringa qo'yadi.

G) So'zning turli shakllari tarkibidagi o'zaro almashadigan tovushlarning munosabati (fonologik korrelyatsiya) masalasiga e'tibor berildilar: *tuzsiz* – *tussiz*, *okna* – *okon*. Fonemalardagi urg'uli va urg'usizlik, jarangli-jarangsizlik, qisqalik va cho'ziqlik fonemalar munosabatini ko'rsatadi.

35. Glossematikaning asoschisi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) F.de Sossyur
B) X.Uldall
V) L.Yelmslev*
G) V.Brendal

36. Frans Boas (1858-1942), Leonard Blumfeld (1887-1949)lar strukturalizmning qaysi oqimi namoyandalari hisoblanadi?

- A) funksional lingvistika
B) deskriptiv lingvistika*
V) Praga strukturalizmi
G) glossematika maktabi

37. Kimning fikricha, "til sistemasi va strukturasini o'rGANISHDA sinxronik aspektning ahmiyati katta bo'lib, tilshunoslik fanining eng dastlabgi, bosh vazifasi sistem tabiatga ega bo'lgan til hodisalarini zamonaviy, shu kundagi holatini tekshirish, o'rGANISHdir"?

- A) Y.V.Loya*
B) F.de Sossyur
V) L.Yelmslev
G) Vilgelm fon Gumboldt

38. "Funksionalnaya morfologiya tyurkoyazichnx pamyatnikov XI – XII b.", "O'zbek tili tarixiy fonetikasi", "Til va nutq", "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" kabi asarlar muallifi kim?

- A) H.Ne'matov*
- B) R.Sayfullayeva
- V) H.Ne'matov
- G) A.Abdizuhurov

39. "Hamid Ne'matov va R.Rasulovlarning "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" kitobining nashr qilinishi faqat o'zbek tilshunosligida emas, balki butun turkiyshunoslikda katta voqeа bo'ldi". Turkiy leksikologiyada ilk fundamental tadqiqot sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan ish haqida bildirilgan fikr muallifi kim?

- A) A.Hojiyev
- B) G'.Abdurahmonov
- V) A.Nurmonov*
- G) N.Mahmudov

40. Quyidagi qaysi hodisa o'zbek tilshunosligida o'rnatilmagan?

- A) modal formalarning yaxlitlanishi
- B) kelishik shakllarining graduonimiyasi
- V) morfologik hodisalarda darajalanishning voqelanishi*
- G) sifat darajasining tublashuvi

41. S.Ivanov talqinlaridan rivojlanuvchi zotiy yondashuv lingistik atamasini H.Ne'matov qaysi atama bilan atagan?

- A) umumiyl forma
- B) substansial dialektik*
- V) funksional tarmoq
- G) leksik maydon

42. Quyidagi qaysi usul bevosita kuzatishda berilmagan, bizning sezgi a'zolarimiz orqali anglanmaydigan hodisalarni o'rnanishda qo'llanildi?

- A) darajalash usuli
- B) qoliplashtirish usuli*
- V) ma'noli qismlarga ajratish usuli
- G) bog'lovchi vositalarni aniqlash usuli

43. Tajalli atamasining mohiyati, uning tasavvuf ta'lilotidagi metodologik ahamiyati haqida kim o'zining "Tajalli tasavvuf bilish nazariyasi va tilshunoslikda sintaksisi o'rganish masalalari" degan maqolasida batafsil ma'lumot bergen?

- A) A.Nurmonov
- B) R.Sayfullayeva
- V) H.Ne'matov*
- G) to'g'ri javob berilmagan

44. "narsa egasi – narsa" qolipidagi birikmani toping.

- A) otning erkagi
- B) stolning oyog'i
- V) mashinaning haydovchisi
- G) Salimning kitobi*

45. Lisoniy birlikdarning formal-funksional tadqiq usuli bilan ochilgan va tavsiflangan mohiyatga nisbatan ... atamasini qo'llash maqsadga muvofiq?

- A) lisoniy birlikning zotiy mohiyati
- B) lisoniy aloqalar paradigmasi
- V) lisoniy birlikning voqelanishi
- G) barcha javoblar to'g'ri

46. Formal-funksional tahlilda qaysi birlikka "kesimlik ko'rsatkichlari va ma'nolari ([P_m]) bilan shakllantirilgan atov birligi va unga aloqador bo'lak, qism" deb ta'rif beriladi?

- A) gap*
- B) so'z birikmasi
- V) qo'shma so'z
- G) morfema

47. Qaysi qatorda gap qolipi xato berilgan?

- A) gapning mohiyatiy (zotiy) – lisoniy qolipi.
- B) gapning uchinchi darajali bo'laklari qolipi*
- V) gapning ichki qurilish qolipi
- G) gapning yuza qurilish qolipi

48. "O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis", "O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya" asarlari muallifi kim?

- A) A.Hojiyev
- B) G'.Abdurahmonov

V) A.Nurmonov*
G) N.Mahmudov

49. Kesimning morfologik shaklidagi shaxs/son ma'nosini muayyanlashtiruvchi gap bo'lagi – bu ...

- A) hol
- B) to'ldiruvchi
- V) ega*
- G) izohlovchi

50. Tilshunoslikda gapni qoliplashtirish nechta bosqichda amalga oshiriladi?

- A) cheksiz
- B) to'rt
- V) ikki
- G) uch*

GLOSSARIY

Aloqa-munosabat kategoriyalari – aloqa-munosabat (sintaktik) kategoriyalari so'z turkumiga emas, balki gap bo'laklariga, so'zning sintaktik mavqeyiga xos. Aniqrog'i, so'z ma'lum bir turkumga xos bo'lganligi uchun emas, balki qaysi gap bo'lagi vazifasida kelayotganligiga, gapda qanday sintaktik vazifa bajarayotganligiga qarab, aloqa-munosabat shaklini qabul qiladi. Biroq bunda so'z turkumining ko'proq qaysi gap bo'lagi vazifasiga xoslanganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Assimiliyatsiya – nutq tovushi qator kelganda, ba'zan bir-biriga ta'sir qilib, birining ikkinchisini o'ziga moslashtirishi.

Atash semasi – leksemaning borliqdagi harakat-holatlilik, narsa-predmetlik, miqdorlik, belgilik xususiyatini atovchi, nomlovchi sema

Atov birligi [W] – mustaqil so'z, atov birligi

B.Trinka – Praga strukturalizm maktabi vakili

B.Gavranek – Praga strukturalizm maktabi vakili

Bir o'lechamli ziddiyat – belgilar majmuyi tizimida zidlanuvchi ikki a'zo uchungina amal qilib, boshqa a'zoga tegishli bo'lмаган ziddiyat.

Bir o'lechovli ziddiyatda fonemalar bir belgi asosida zidlanadi.

Birlashtiruvchi sema – birdan ortiq leksemadagi o'xshash, bir xil sema.

Farqlovchi sema – o'xshash, ma'noviy yaqin leksemalardagi farqlanuvchi sema.

Darajali ziddiyat – a'zolari kamida uchta bo'lgan, bir belgi (ziddiyat belgisi)ning o'sib borishiga ko'ra, a'zolar qator hosil qiladigan ziddiyat. Masalan, tilning ko'tarilishiga ko'ra, unli fonemalar darajalanishi quyidagicha: *a – e – i* yoki *o – o' – u*.

Deskriptiv-tasviriy metod – Amerika strukturalizm maktabining asosiy metodi.

Deskriptiv lingvistika – Amerika strukturalizmining ikkinchi nomi, ayrim til birliklarining bir-biriga nisbatan joylashish tartibini yoki ularning tarqalish munosabatini tasvirlovchi fan.

E. Sepir – Amerika strukturalizm maktabi vakili, etnolingvistika asoschisi.

F. Boas – Amerika strukturalizmining asoschisi.

Fonema – eng kichik biryoqlama (ya'ni faqat shakliy tomonidan iborat) lisoniy birlik. Fonema muayyan til egalarining ma'lum tovush tipi haqidagi umumiyyat tasavvuri.

Fonetikaning birligi bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushi bo'lganligi kabi, fonologiyaning birligi – so'zlovchilarining ana shu bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushi asosida yotgan tovush tipi haqidagi ijtimoiy tasavvuri. Har bir fonema kishi ongida umumiyyat farqlovchi xususiyat asosida vujudga kelgan maxsus "akustik portret" yoki "tovush obrazzi" sifatida yashaydi.

Fonologik paradigma – fonema tizimi va ularning ichki bo'linishi. Sintagmatik aloqa barcha til birliklariga xos ketma-ket munosabati.

Fonologiya (gr. *phone* – tovush, *logos* – ta'limot) termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushining fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funktsional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo'ldi. Fonologiya til tovush qurilishining struktur va funktsional qonuniyatini o'rGANUVCHI soha, semiotik (ishoraviy) tizim sifatida nutqni akustik-artikulyatsion aspektida o'rGANADIGAN fonetikadan farqlanadi.

Fonologiya til tovush qurilishining struktur va funktsional qonuniyatini o'rGANUVCHI soha, semiotik (ishoraviy) tizim sifatida nutqni akustik-artikulyatsion aspektida o'rGANADIGAN fonetikadan farqlanadi.

Fonologiya/fonetika – Fonetika deganda, eng quyi lisoniy sath ham, tilshunoslikning shu sathni o'rGANADIGAN sohasi ham tushuniladi. Fonetika (gr. *phonetikos* – tovushga, ovozga xos). Fonetika, avvalo, umumiyyat, xususiy va qiyosiy fonetikaga ajraladi.

Funksional lingvistika – strukturalizm umumiyyat tilshunoslikda funksional lingvistika nomi bilan yuritiladi.

Funksional-semantik shakllangan sodda gapning lisoniy sintaktik qolipi – LSQ.

Gipo-giperonimik – tur-jins munosabati.

Glossematika – grekcha "glossa" – til so'zidan olingan, XX asrning 30-yillarida Daniyada tashkil topgan Kopengagen strukturalizmning nomlanishi.

Graduonimiya – bir necha leksemaning ma'lum bir belgining ozko'pligiga qarab, lug'aviy ma'noviy qatorda, tizimda namoyon bo'lishi. Bunda dominanta va qurshov leksema farqlanadi.

Ifoda semasi – semema tarkibida turli qo'shimcha ma'no (uslubiy bo'yoq, shaxsiy munosabat, qo'llanish doirasi va davri)ni atovchi sema.

Ixtisoslashgan leksema – nutqiy yasama so'z lisoniy lashuvining eng quyi darajasi. Ixtisoslashgan leksema yasamaligini yo'qotmagan, ya'ni o'zida qolipning shakliy tomoni izini saqlagan, biroq ma'noviy tomonidan qolipdan uzilgan, ma'nosini qolipning o'ng (mazmuniy) tomonidan keltirib chiqarish imkonni bo'limgan, toraygan ma'noli leksema.

Kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlari – kesimlik murakkab kategoriya, uning tarkibiy qismlari tasdiq-inkor, mayl, zamon, shaxson kategoriyasi ko'rsatkichlaridir.

Ko'p o'chamli ziddiyat – zidlanuvchi birlikdag'i belgi boshqa a'zoda ham mavjud ziddiyat.

Ko'p o'chovli ziddiyatda ziddiyat a'zolari birdan ortiq belgi asosida qarama-qarshi qo'yiladi: *i* – *o* ziddiyatida *i* yopiq va lablanmagan bo'lsa, *o* yarim yopiq, lablangan.

L.Bluemfield – deskriptiv tilshunoslik asoschisi.

Leksema – "jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiyyat, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan voqeqlikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemalarni o'ziga biriktira oladigan morfema turi."

Leksemaning ichki, mazmuniy tomoni *semema* deyiladi.

Lison – UMIS tabiatli lisoniy birliklarning serqirra, ko'p qavatlari sathlaridan tashkil topgan barqaror, tashqi muhit ta'siriga o'ta sezgir, o'zgarish, rivojlanish va moslashish immanent qobiliyatini o'z ichida mujassamlashtirgan murakkab qurilishli ierarxik sistemasidir. Lison deyilganda, ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan (oldingi avlodlar tomonidan) tayyor holga keltirib qo'yilgan, hamma uchun umumiyyat, majburiy, fikri ifodalash va boshqa maqsad uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o'zaro birikish qonuniyatlarini yig'indisi tushuniladi.

Lisoniy qolip – yasama so'z, so'z birikmasi va gaplar hosil qilish sxemalari. Qoliplar ikki xil bo'ladi: a) so'z yasash qolipi; b) sintaktik (so'z birikmasi va gap) qolip.

Mayl – mayl kategoriyasi (qisq. MK) "kesimdan anglashilgan voqelikning borliqqa munosabatini ifodalash va gap kesimini shakllantirishda ishtirok etish" UGMSiga ega. MK UGMSida mayl kategorial ma'nosiga har doim zamon kategoriyasi ma'nosiga yondosh.

Me'yor – lisonning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil bo'lib, lisoniy imkoniyat – sinonimik qator, lisoniy birliliklarning dubler, allovariant va variantlari, sohaviy birliklardan har birining voqelanish o'mi va xususiyatini belgilaydi.

Metateza – og'zaki nutqda ba'zan yonma-yon kelgan undosh tovushlarning o'rinni almashishi.

Morfema – leksemadan ajralgan holda, o'z mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ bo'limgan mazmunning birligidan iborat bo'lgan kichik lisoniy birlik. Qo'shimcha ana shu psixofizik mohiyatning nutqda namoyon bo'lishi. Morfema ham tashqi (moddiy) va ichki (ma'no, vazifa) jihat yaxditligidan iborat.

Morfonologiya – 1) ma'lum bir qurshovdagi leksema va morfema nutqiy varianti tarkibidagi fonetik o'zgarish sistemasi;

2) tilshunoslikning shu o'zgarishini o'rganuvchi sohasi.

Muntazam ziddiyat – bir belgi asosida turli a'zoni juftlab zidlanishi.

N.S.Trubetskoy – Praga strukturalizm maktabi vakili.

Nomema deganda, leksemaning moddiy tomonini tashkil etgan fonemalar hosilasi – nutq tovushlari nazarda tutiladi.

Noto'liq ziddiyat – qarshilanuvchi a'zodan biri ziddiyat belgisiga ijobjiy, boshqasi esa betaraf munosabatdagi ziddiyat.

Nutq – lisonning me'yor elagidan o'tgan muayyan moddiy (yo'zma, og'zaki, tasviriy/imo-ishora, signal, va h.k.) shakllaridan birida voqelanishi.

Nutq – lisonning me'yor elagidan o'tgan muayyan moddiy (yo'zma, og'zaki, tasviriy/imo-ishora, signal, va h.k.) shakllaridan birida voqelanishi.

O'xshashlik (paradigmatik) munosabati – o'zaro teng, bir umumiy belgi asosida birlashib, qator hosil qiluvchi, ammo o'ziga xos belgilarga ko'ra, farqlanib turuvchi birliliklarning o'zaro aloqasi.

O'zaro qarama-qarshi belgiga ega bo'lgan, biroq umumiy, integral belgilari asosida birlashgan bir tipdag'i fonemalar sirasi *fonologik paradigm*, fonemalarning o'zaro munosabati *fonologik paradigmatic munosabat* deyliladi.

Paradigma – umumiy belgisi asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o'ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi. Paradigmani tashkil ikkita a'zo bo'lib, ular, asosan, bir lisoniy sathga mansub bo'ladi. Bir paradigma a'zolari orasidagi o'zaro munosabat *paradigmatik munosabat* yoki *o'xshashlik munosabati, assotsiativ munosabat* deyliladi.

Paradigmatik munosabat – o'zaro teng (pog'onali munosabatdagi *daraxt* va *tana*, *daraxt* va *gilos* birliklari semantik qamrovi jihatdan teng emas edi), bir umumiy belgi asosida birlashib, qator hosil qiluvchi, ammo o'ziga xos belgilarga ko'ra, farqlanib turuvchi birliliklarning o'zaro aloqasini ifodelaydi.

Proteza – so'z boshida bitta unlining orttirilishi.

R.O.Yakobson – Praga strukturalizm maktabi vakili.

S.Karsyevskiy – Praga strukturalizm maktabi vakili.

Sema – leksemaning mazmun silsilasi bo'lgan *sememani* tashkil etuvchi a'zo. Nomema tovushlarning turlicha kombinatsiyalari asosida tashkil topganligi kabi, ana shu semalarining turlicha birikuvi va ba'zilarining o'rinni almashinuvni asosida turli *mazmundagi semema* vujudga keladi.

Shaxs-son – shaxs-son kategoriyasi *kesimlik kategoriyasi* UGMSini "ega valentligini muayyanlashtirish orqali gap kesimini shakllantirishda ishtirok etish" tarzida xususiylashtiradi.

Singarmonizm – unlilarning moslashishi, uyg'unligi demakdir. U, asosan, turkiy tillarga xos.

Singarmonizmning ikki asosiy ko'rinishi mavjud:

a) til garmoniyasi;

b) lab garmoniyasi.

Lab garmoniyasida unlining moslashishi ikki tomonlama bo'jadi. Bunda unli ham til oldi – til orqalik jihatidan, ham lablanganlik-lablanmaganlik jihatidan o'zaro va undoshlarga moslashadi. Bunga ko'ra, so'z boshidagi unli lablangan til oldi unlisi bo'lsa, so'z oxirida ham lablangan til oldi unlisi keladi. So'z boshidagi unli lablangan til orqa unlisi orqa unlisi bo'lsa, so'z oxiridagi unli ham lablangan til orqa unlisi bo'jadi. Masalan, *boshqird, sog'in, bo'g'in* so'zidagi kabi.

So'z birikmasi lisoniy sintaktik qolipi – W-W umumiy lisoniy sintaktik qolipi.

So'z esa til jamiyati a'zolari ongidagi leksemaning so'zlovchi tomonidan nutq sharoitiga mos ravishda qo'llanilishi.

Sodda gapning minimal qolipi – gapning eng kichik qurilish qolipi WP_m = fikr ifodalovchi eng kichik til birligi lisoniy sathda o'mashgan. Bunda LSQning chap tomoni shakliy va o'ng tomoni mazmuniy jihatni.

Soddalashgan leksema – yasama so'zlar lisoniy lashuvining yanada yuqoriq bosqichi. Soddalashish – bu ma'lum bir so'z yasash qolipining hosilasida o'zak va qo'shimchaning o'zaro birikib ajralmas holga kelishi, so'zshakldagi grammatik vositaning qotib qolishi natijasida yangi ma'no ifodalashidir.

Strukturalizm – struktural lingvistika XX asrning 20-yillarining oxirrog'ida (1926) yuzaga kelib, hozirgi zamon tilshunosligining o'ziga xos yetakchi oqimlaridan biri.

Substansiya (zot) – bevosita kuzatishda berilmagan, ichki birligi tomonidan qaraladigan obyektiv borliq bo'lib, o'zining har xil o'zgarishlariga nisbatan befarq, ammo shu o'zgarishlar hisobiga yashaydigan barcha shakllari va harakatlari aspektidagi materiya; bu harakatlarda paydo bo'luvchi farq va qarama-qarshiliklar.

Leksema – ma'lum bir til jamiyati a'zolari ongida tayyor, umumiy va majburiy, shakl va ma'no birligidan iborat, yaxlitlangan, borliqdagi harakat, narsa-predmet, belgi, miqdor kabilarni bildiruvchi tushunchalar va munosabatlarni ifodalaydigan, nutqda so'zlarni va grammatik morfemalarni biriktiradigan lisoniy birlik. Leksema va so'z yasash qoliplarining nutqda reallashgan aniq shakl va ma'noga ega bo'lgan muayyan ko'rinishi – so'z.

Tasdiq/inkor – kesimdan anglashilgan fikring tasdiq yoki inkorini ifodalaydi. TIKning UGMsi – "tasdiq, inkor ma'nosini ifodalash bilan gap kesimni shakllantirishda ishtirot etish, uning hol valentligiga ta'sir qilish."

Til – sof lisoniy qobiliyat va imkoniyat. U tafakkurni shakllantirishga (kodlashtirishga), xotirada qat'iy sistemaga tizib saqlashga, axborotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi muhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy-ruhiy kommunikatsiya vositasi. Tilda bosh ichki ziddiyat – atash (nominativ) va ifodalash (ekspressiv) vazifalarining dialektik birligi.

Til garmoniyasida unli tovush yumshoqlik yoki qattiqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Singarmonizmning til garmoniyasi qonuniyatiga ko'ra, so'zning boshida til oldi unlisi kelsa, so'z o'rtasi va oxirida ham til oldi unlisi keladi. Boshqacha aytganda, so'zning boshida undoshning artikulyatsion o'rniga bog'liq ravishda, unli tovushda yuz bergan o'zgarish so'zning keyingi bo'g'iniga ham ta'sir ko'rsatadi.

Tablashgan leksema – shunday leksemalashgan yasama so'zki, ularning yasalishini, tarkibini etimologik ma'lumotsiz aniqlab bo'lmaydi. Masalan, *sin fe'lining o'zagi si, tingla fe'lining o'zagi ding, to'q so'zi o'zagining to' ekanligi*.

UGM – lisoniy tabiatli bo'lib, lisoniy birlklarga xos barcha belgiga ega : umumiyl, mavhum, zaruriy, barqaror, invariant, usual, ijtimoiy va b.

V.Brendal – Kopengagen strukturalizm maktabi vakili.

V.Matezius – Praga strukturalizm maktabi vakili.

Vazifa semasi – leksemaning birikuv-birkirtiruv (valentlik) imkoniyatini, lisoniy qolipa qanday o'rinni egallashini bildiruvchi sema.

X.Uldall – Kopengagen strukturalizm maktabi vakili.

XGM – nutqiy ma'no bo'lib, nutqiy birlklarga xos xususiylik, aniq, tasodifiy, beqaror, okkazional, individual kabi belgilarga ega.

Zamon – "Payt valentligiga ta'sir etish orqali kesimni shakllantirishda ishtirot etish va undan anglashilgan voqelikning nutq momentiga munosabatini ifodalash" – zamon kategoriyasi (qisq. ZK)ning UGMsi. Fe'lda bu UGMdagi *voqelik* uzvi harakat *tarzi* ko'rinishida xususiyashadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdurazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992. – 136 b.
2. Abuzalova M. Sodda gap modeli va uning paradigmasi haqida // Respublika yosh filolog olimlarining an'anaviy ilmiy konf. mater. – Toshkent, 1990. – B. 67-68.
3. Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish golipi va uning nutqda voqelanishi: Filol.fanlari nomzodi...diss. Toshkent, 1994. – 128 b.
4. Akramov Sh. O'zbek tilining gap qurilishida to'ldiruvchi va hol. ([WP_m] valentligi aspektida): Filol.fanlari.nomzodi...diss. – Toshkent, 1997. – 161 b.
5. Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. – М: Просвещение, 1966. – 302 с.
6. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. Енцикл., 1966. – 607 с.
7. Башмансов М. Изучение членов предложения узбекского языка в дихотомии "Язык-речь". Уровень языка. – Ташкент, 1991. – 24 с.
8. Белошапкова В.А. Современный русский язык. Синтаксис. – М: Выш. шк. 1977. – 248 с.
9. Bobokalonov R. O'zbek tilida funksional-semantik shakllangan so'z-gaplar. Filol.fanlari nomzodi ...diss. – Toshkent, 2000. – 136 b.
10. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. – Toshkent: "Fan", 1995. – 132 b.
11. Boshmonov M. Monopredikativ sodda gaplarning bo'laklari lisoniy sistema sifatida. I-II qismlar. – Xo'jand, 1994. – 154 b.
12. Boshmonov M. O'zbek tilida gap bo'laklarini sistema sifatida o'rGANISH metodologiyasi. – Xo'jand, 1994. – 36 b.
13. Гиясов С. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1983. – 21 с.
14. Грамматика русского языка. Т.2. – М.: Изд-во АН СССР, 1954. – 444 с.
15. Грамматика современного русского литературного языка/ Под ред. Н.Ю.Шведовой. – М: "Наука", 1980. – 76 с.

16. Джаббарова Р.Д., Гиясов С.Г. Применение метода компонентного анализа к изучению качественных прилагательных узбекского языка//Сов. тюрк. – 1978. – № 2. – С. 69-77.
17. Eraliyeva Z. Kesimlik kategoriyasi haqida. Tilshunoslikka o‘id tadqiqotlar// Jumhuriyat yosh olimlarining an‘anaviy ilmiy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 1992. – B.10-12.
18. Yorov B. Uyushiq bo‘lakli sodda gaplar talqiniga doir//O‘zbek tili va adabiyoti. – 1996. – № 4. – B. 37-40.
19. Золотова Г.А. Очерки функционального синтаксиса русского языка. – М.: Наука, 1973. – 352 с.
20. Иванов С.Н. Курс турецкой грамматики. 4.1. – Л.: ЛГУ, 1975. – 100 с.
21. Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. – Л: ЛГУ, 1959. – 151 с.
22. Иванов С.Н. Родословное древо тюрок Абул Гази хана. Грамматический очерк. – Ташкент: “Фан”, 1962. – 204 с.
23. Иванова И.Н., Бурлакова В.В., Почекинов Г.Г. Теоретическая грамматика современного английского языка. – М: “Наука”, 1981. – 321 с.
24. Исаченко А.В. Бинарность привативные оппозитии грамматические значения//Вопр. яз. – 1963. – № 2. – С. 39-57.
25. Iskandarova Sh. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydoni sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni): Filol. fanlari d-ri ...diss. avtoref. – Toshkent, 1999. – 61 b.
26. Каримов Б.Р. Диалектика объективного и субъективного в методе восхождения от абстрактного к конкретному. – Тошкент: “Фан”, 1989. – 148 с.
27. Карсевский С. Ассиметрический дуализм лингвистических знаков//Звенинцев В.А. История языкоznания XIX-XX вв. в очерках и извлечениях. Ч.П. – М., 1965. – С. 65-74.
28. Кацнелсон С.Д. Историко-типологическое исследование. – М. – Л.: АН СССР, 1937. – 384 с.
29. Курбонова М.М. О валентности грамматической формы в узбекском языке//Русистика в Казахстане: проблемы, традиции, перспективы. – Алматы, 1999. – С. 112-114.
30. Ломтев Г.П. Язык и речь//Ломтев Т.П. Общее и русское языкоzнание. – М., 1976. – С. 54-60.
31. Ломтев Т.П. Принципы построения формулы предложения //Филол. науки. – 1969. – № 5. – С. 56-69.
32. Ломтев Т.П. Структура предложения в современном русском языке. – М.: Изд. МГУ, 1979. – 198 с.
33. Madrahimov I. O‘zbek tilida so‘zning serqirraligi va uni tasniflash asoslari: Filol.fanlari nomzodi...diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – 25 b.
34. Майзел С.С. Изает в турецком языке. – М.Л.: АН СССР, 1957. – 186 с.
35. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tili nazariy grammatikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995. – 228 b.
36. Мелчук И.А. Опыт теории лингвистических моделей “Смысл↔текст”. – М.: “Наука”, 1974. – 314 с.
37. Mengliyev B. Morfologik vositalarning ma’noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol.fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent, 1996. – 134 b.
38. Москалская О.И. Проблемы системного описания синтаксиса. – М.: Высш. шк. – 1974. – 154 с.
39. Мухамедов С.А., Пиоторовский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статического исследования узбекских текстов. – Ташкент: “Фан”, 1986. – 161 с.
40. Мухин. Валентность и сочетаемость глаголов // Вопр. яз. 1987. – № 6. – С. 52-65.
41. Muhammadjonova S. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida uyushgan gaplar: Filol. fanlari nomzodi...diss. avtoref. – Samarqand, 1999. – 26 b.
42. Nabiyeva D. O‘zbek tilida lisoniy birliklarning invariant-variant munosabati: Filol.fanlari nomzodi...diss. avtoref. – Toshkent, 1998. – 29 b.
43. Nazarova S. Birikmalarda so‘zlarning erkin bog‘lanish omillari: Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – Toshkent, 1997. – 21 b.
44. Нарзиева М. Семантическая структура имён существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке: Автореф.дисс.канд.филол.наук. – Ташкент, 1992. – 28 с.
45. Ne’matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O‘zbek tili struktural sintaksisi asoslari. – Toshkent: “Universitet”, 1999. – 55 b.

46. Ne'matov H. Tajalli tasavvuf bilish nazariyasi va tilshunoslikda sintaksisni o'rganish masalalari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1993. – № 2. – B. 27-30.
47. Ne'matov H. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. Toshkent: "O'qituvchi", 1992. – 93 b.
48. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: "O'qituvchi", 1993. – 30 b.
49. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1995. – 127 b.
50. Ne'matova G. O'zbek tilida o'simlik nomlari leksemalari: tizimi va badiiy qo'llanishi: Filol.fanlari nomzodi...diss. – Toshkent, 1998. – 136 b.
51. Нигматов Х., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухамедова Д.А., Нурмонов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков (тезисы формально-функционального исследования). //Сов.турк. – 1984. – № 5. – С. 3-10.
52. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент: "Фан", 1989. – 190 с.
53. Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Халияров X.X., Махмудов Н.Н., Нурмонов А., Сайфуллаева Р.Р. Способ синтаксической связи и актуальные вопросы тюркского синтаксиса// Сов. тюрк. – 1988. – №4. – С. 3-9.
54. Nishanova N. O'zbek tilida hayvon arxisemali leksemalar tizimi. Filol.fanlari nomzodi...diss. – Toshkent, 2000. – 120 b.
55. Нурманов А. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. – Ташкент: "Фан", 1982. – 152 с.
56. Nurmonov A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. – Andijon, 1992. – 36 b.
57. Nurmonov A. va boshqalar. O'zbek tilining mazmuniy sintaksi. – Toshkent: "Fan", 1992. – 92 b.
58. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. – Toshkent: "Fan", 1982. – 100 b.
59. Nurmonov A. Tilni sistemali o'rganish va sintaksisning ayrim munozarali masalalari//O'zbek tili va adabiyoti. – 1998. – № 5. – B. 20-26.
60. Nurmonov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1990. – 45 b.
61. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. – М.: "Наука", 1973. – 318 с.
62. Orifjonova Sh. O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya. Filol.fanlari nomzodi...diss. – Toshkent, 1996. – 113 b.
63. Расулов Р. Лексико-семантические группы глаголов состояния и их валентность. – Ташкент: "Фан", 1991. – 176 с.
64. Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. – Toshkent: "Fan", 1989. – 141 b.
65. Rasulov R., Narziyeva M. Leksikologiyani o'rGANISH. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992. – 23 b.
66. Raupova L. O'zbek tilida nomustaql kesim masalasi va [WP_m-WP_n] qurilishi gaplar: Filol.fanlari nomzodi...diss. – Toshkent, 1999. – 122 b.
67. Rahmatullayev Sh. Otlarda negizlar//O'zbek tili va adabiyoti. – 1971. – №1. – B. 22-31. – №2. – B. 35-43.
68. Ревзин И.И. Метод моделирования и типология славянских языков. – М.: "Наука", 1967.
69. Русская грамматика/Под ред. Н.Ю.Шведовой. – М.: "Наука", 1982. Т. ИИ. – 709 с.
70. Saidova X.A. O'zbek tilida hayvon nomlarining shaxs tavsiyi vazifasida qo'llanishi: Filol.fanlari nomzodi ...diss. avtoref. – Toshkent, 1995. – 21 b.
71. Сайдова М.Р. Сравнительно-типологическое исследование единосоставных предложений в русском и узбекском языках: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1996. – 153 с.
72. Sayfullayeva R., Abuzalova M. Gapning eng kichik qurilish qoliplari haqida//O'zbek tili va adabiyoti. – 1991. – № 5. – B. 42-47.
73. Sayfullayeva R.R. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'shma gaplarning shakl-vazifaviy (formal-funksional) talqini: Filol.fanlari d...diss. avtoref. – Toshkent, 1993.
74. Sayfullayeva R.R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal-funksional talqini. – Toshkent: " Fan", 1994. – 356 b.
75. Сафарова Р.Г. Гипонимия в узбекском языке (на материале общеупотребительных зоонимов): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 22 с.

76. Солицев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М.: "Наука", 1971. – 292 с.
77. Соссюр де Ф. Труды по языкоизнанию. – М.: Прогресс, 1977. – 695 с.
78. Ona tilidan dastur//Ta'lif taraqqiyoti. – № 1 maxsus son. – 1999. – В. 55-140.
79. Тенер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988. – 666 с.
80. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М.: Иллит., 1960. – 372 с.
81. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: "Meros", 1993. – 224 b.
82. Filosofiya lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston", 1976. – 639 b.
83. Хомский Н. Логические основы лингвистической теории//Новое в лингвистике. – М., 1965. – С. 465-575.
84. Салкаламанидзе А. А. Обстоятельства в языке «Атебат ул Хакаю» // Сов. тюрк. – 1975. – № 6. – С. 74-76.
85. Салкаламанидзе А. А. Семантико-синтаксические группы глаголов в узбекском языке. – Тбилиси: "Мецниереба", 1987. – 127 с.
86. Чориев А. Синтаксико-семантические признаки родительного падежа в узбекском и английском языках. – Ташкент: "Фан", 1990. – 92 с.
87. Shahobiddinova Sh. O'zbek tili morfologiysi umumiylilik-xususiylik dialektikasi talqinida. – Andijon, 1994. – 98 b.
88. Qilichev B. O'zbek tilida partonimiya: Filol.fanlari nomzodi...diss. – Toshkent, 1997. – 185 b.

MUNDARIJA

1-mavzu: O'zbek tilshunosligida formal-funksional tahlilning shakllanishi	3
2-mavzu: Formal-funksional tahlilning shakllanishidagi omillar	6
3-mavzu: Formal-funksional tahlil tamoyillari	7
4-mavzu: Lisoniy birlikning ko'p paradigmaga mansubligi	13
5-mavzu: Lisoniy tizimda oraliq uchinchining mutlaqligi tamoyili ..	15
6-mavzu: Lisoniy tizimning pog'onaviy (ierarxik) qurilishi tamoyili ..	18
7-mavzu: Lisoniy tizimda markaz-qurshovililik tamoyili ..	22
8-mavzu: Formal-funksional yo'nalishda lison va uning tabiatи ..	28
9-mavzu: Til hodisalarini qoliplashtirish va lisoniy sintaktik qolip tushunchasi	32
10-mavzu: LSQni aniqlash usullari	41
Fan yuzasidan nazorat savollari	50
Test topshiriqlari	51
Glossari	61
Adabiyotlar	69

O'ZBEK STRUKTURAL TILSHUNOSLIGI ASOSLARI

o'quv qo'llanma

Toshkent - "INNOVATSIYA-ZIYO" - 2021

Muharrir: Xolsaidov F.B.

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.
Bosishga 14.01.2021 da ruxsat etildi. Bichimi 60x90.
"Times New Roman" garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 5. Nashr bosma tabog'i 4,75.
Adadi 50 nusxa.



+99893 552-11-21

Muallif va nashriyot roziligidisiz chop etish ta'qiqlanadi.

ISBN 978-9943-8666-1-4

9 789943 866614